Nukleoproteidlar esa oqsil va nuklein kislotalarining birikishidan xosil bo'lgan murakkab birik- madir. Nukleoproteidlar barcha tirik organizmlar Xujayrasining tarkibida uchraydi va yadro xamda sti- toplazmaning ajralmas qismi xisoblanadi.

Oqsillar ma'lum bir xususiyatlarga xam egadir. Bu- lardan bittasi ularning suvda bukish xususiyatidir. Bukish natijasida oqsillar uz hajmini bir necha bor oshiradi. Masalan, non va makaron maxsulotlari uchun xamir tayerlaganda, qandolat maxsulotlari ishlab chi- karishda oqsillar bUkaan.

Bundan tashqari oqsillar turli ta'sirlar natijasida uzining tabiiy xususiyatini yUkotadi. Bu xodisa oqsillar denaturastiyasi deb yuritiladi. Denaturastiya iatijasida oqsil molekulasining fazoviy tuzili- shini, ya'ni birlamchi, ikqilamchi, uchlamchi, turtlam- chi tuzilishini belgilaydigan vodorod va disulfid bog'lar buziladi. Denaturastiya xodisasi kelgrib chi- karadigan omillar orasida eng muximi temperatura- dir. Ko'pchilik oqsillar 55—60"S da denaturastiyaga uchraydi. Masalan, guxumni qaynatib pishirganda, go'sht pishirganda, pishloqaar tayyorlaganda oqsillar denaturastiyaga uchraydi. Oqsillar ogir metall tuzlari, kislotalar. ishkorlar ta'sirida xam denaturastiyaga uchra- shi mumkin.

Ba'zi oziq-ovqat maxsulotlari (don, yorma, muzla- tilgan go'sht, baliq) uzoq muldat saklanganda xam oqsillar sekin- astalik bilan denaturastiyaga uchrashi mumkin. Bu xodisa ba'zan oqsillarning eskirishi deb xam yuritiladi. Natijada maxsulotlar kattik konsis- tenstiyaga ega bo'lib, tez pishmaydi va yomon xazm bo'ladi. Yoki O'simliklar urug'ining ma'lum vakt utganlan keyin u nish qobilyatini yukotishiga xam oqsillar denaturastiyasi sabab bo'ladi.

Oqsillarning yana bir xususiyati ularning gidro- lizlanishidir. Oqsillar fermentlar, ishkorlar yoki kislotalar ta'sirida gidrolizlanganda aminokislota- largacha parchalanadi. Organizmda oqsillarning xazm bo'lishida gidroliz muxim rol uynaydi. Oqsillarning parchalanishi oziq-ovqat maxsulotlarini saqlaganda ham ularning sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Vitaminlar

Vitaminlar organizmning normal rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo'lgan xar xil kimyoviy tuzilish- dagi biologik faol organik birikmalardir. Vitaminlar oziq-ovqat maxsulotlarining tarkibiy qismi xisoblanadi, lekin ular oqsillar, uglevodlar, yog'larga nisbatan oz miqdorda talab kilinadi. Vitaminlar organizmning usishi, umumiy rivojlanishi, yangi tukimalar xosil bo'lishi, moddalar almashinuvi, ov- Katning xazm bo'lishi va boshqa xayotiy jarayoshtrda faol ishtirok etadi. Ko'pchilik vitaminlar oqsillar bilan birikib fermentlar xosil qiladi. Iste'mol Kilinayotgan ovqatda vitaminlarning etishmasligi natijasida kishi kasallanishi, bu kasalliklar uz vak- gida davolanmasligi sababli ulimga xam olib borishi mumkin.

Vitaminlarni 1881 yilda rus vrachi N. I. Lunin kashf etgan. U xayvonlar ustida tajriba olib borib, ularning normal xayotini ta'minlovchi oqsillar, uglevodlar, yog'lar va mineral moddalardan tashqari yana Qandaydir xayot uchun zarur bo'lgan organik moddalar mavjud degan xulosaga kedsti. 1911 yilda esa polyak olimi Kazimir Funk sholi kepagidan qistall xol- dagi biologik kuchli modda ajratib olishga muvaffak buldi. Bu modda tekshirilganda uning

tarkibida amin guruxi borligi aniqaangan. Shuning uchun Q Funk bu birikmalarni vitaminlar, ya'ni tarkibida azot tutuvchi va hayot uchun zarur moddalar deb atadi.

Xozirgacha 50 dan ortik vitaminlar va vitamin- larga uxshash moddalar aniqaangan bo'lib, shulardan 20 tasining kishi salomatligi uchun axamiyati juda kattadir. Bo'larning ko'p chiligi lotin alifbosining harflari bilan boshlanadi (masalan. A, V, S, D, E vitaminlari va xokazo).

Eruvchanligiga qarab vitaminlar ikki guruxga: suvda eriydigan va yog'larda eriydigan vitaminlarga bo'linadi.

Turli xil oziq-ovqat maxsulotlari tarkibida vitaminlarning miqdori xam turlicha bo'ladi. Oziq-ov- Kat maxsulotlarini uzoq saqlaganda, quritilganda va qaynatilganda ulardagi turli vitaminlarning bir kis- mi yuqladi. Shuning uchun xam tovarshunoslar qaysi oziq-ovqat maxsulotlarida standay vitaminlar borli- gini, vitaminlarni saqlab qolish uchun turli oziq- ovqag maxsulotlarini saqlash qidalarini bilishla- ri zarur.

Kuyidagi 2-jadvalda ba'zi oziq-ovqat maxsulotlari tarkibidagi vitaminlarning u rta ch a miqdori kel- tirilgan.

2-jadval

Ba'zi oziq-ovqat maxsulotlari tarkibidagi vitaminlar miqdori (100 gramm maxsulotda mg xisobida)

Maxsulotlar nomi	•A	V]	V2	RR	S
Javdar bug'doy noni	—	0,5	0,13	0,45	—
Arpa yormasi	—	0,20	0,15	2,50	—
Oq burdoy noni	—	0,10	0,07	0,67	—
Grechixi yormasi	—	0,50	0,24	4,40	—
Mol go'shti	0,01	0,10	0,19	4,20	—
Kuy go'shti	—	0,17	0,15	5,8	—
Mol jigari	15	0,40	0,61 ~	22,0	31,6
Tovuq go'shti	—	0,16	0,16	6,9	-
Sazan baliBi	—	0,02	0,14	2,8	
Sut	0,05	0,05	0,19	od	0.1
Pishloq	0,45	0,03	0,45	0,1	—
Tuxum (1 donasi)	0,65 1	0,07	0,16	0,12	—
Kartoshka	k>ki bor	0,10	0,16	0,910	20
Oq bosh karam	0,04	0,15	0,05	0,4 1	45
Sabzi	9	0,06	0,06	0,4	5
Pomidor	2	0,06	0,04	0,5	40
Bosh piyoz	0,03	0,04	0,04	0,2	10
Olma	0,1	0,04	0,03	0,2	7
Limon	0,4	0,04		od	40
Kora smorodina	0,7	0,06	-		300

Bu jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat mahsulotlari vitaminlar qiymati bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Endi esa dar bir vitamin to'g'risida tuliqok ma'lumot keltiramiz.

Suvda eriydigan vitaminlar. Bunga S, V guruhi vi- taminlari, R, RR, N vitaminlari va boshqalar kiradi.

S vitamin (askorbat kislota) oziq-ovqat tarkibida etishmasa stinga (lavsha) kasalligi paydo bo'ladi. Tekshirishlar natijasida bu vitaminning axamiyati katta ekanligi ma'lum buldi. S vitamin moddalar al- mashinuvida ishtirok etadi,

buyning usishi va umu- man organizmning normal rivojlanishi uchun juda zarur. Agar u ovqatda etarlicha bulmasa kishining ish qobiliyati pasayadi, tez charchaydi, organizmning dar xil kasalliklarga kurashish qobiliyati dam susayadi. Yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mevalar, sabzavotlar, rezavor me- valar xamsta kartoshka S vitaminining asosiy manbai xisoblanadi. Ayniksa kora smorodina, qizil kalam- pir, xom yongoq karam, kuk piyoz, pomidorlarda u ko'pdir. Kartoshkada S vitamin nisbatan ko'p bulmasa Xam (10 mg foiz) u har bir ovqatga solinadi va ko'p iste'mol kilinadi. Shuning uchun xam kartoshka inson organizmini S vitamin bilan ta'minlaydigan asosiy oziq-ovqat maxsulotlaridan biridir. Xayvon maxsu- lotlarida bu vitamin juda kam bo'ladi.

S vitamin suvda yaxshi eriydi, lekin organik eri- tuvchilarda erimaydi. U kislorod ta'sirida tez oksid- lanadi, yuqori xarorat va ofhp metall tuzlari xam bu vitaminning parchalanishini tezlatadi. Sabzavotlar pishirilganda S vitaminning 1/3 qismi nobud bo'ladi. Oziq-ovqat maxsulotlari qizdirilganda, uzoq vakg sak- langanda xam ma'lum darajada S vitamin nobud bo'ladi, ammo muzlatilgan meva va sabzavotlarda yaxshi sak- lanadi.

Kishining. yoshiga, jinsiga, bajarayotgan ish fao- liyatiga qarab S vitamining sutkalik extiyoj 75—100 milligrammni tashqil kil ad i.

R vitamin (bioflavonoidlar) kon tomirlarining utkazuvchanlik xususiyatini mustaxkamlovchi bir necha moddalar guruxini uz ichiga oladi. Bu birikmalar kimyo- viy jixatdan bir-biriga yaqin rutin, gespiridin, kvarstetin, katexinlardan tashqil topgandir. Ularning hammasining asosini flavon xalkasi tashqil etadi.

R vitamin organizmda S vitaminining yaxshi uzlashti- rilishiga yordam berib, organizmda bir-biriga uzaro bog'liq ravishda ta'eir etishi aniqaangan.

R vitaminning kora smorodina, limon, uzum, ol- xuri, behi, xurmo va choyda (ayniksa kuk choyda) ko'pli- gi aniqaangan. Unga bo'lgan kundalik ehtiyoj 25 mil- ligrammni tashqil etadi.

V, vitamin (tiamin) organizmda normal modda al- mashinuvi uchun juda zarurdir. Bu vitamin organizmda uglevodlar, oqsillar, yog'lar almashinuvi jarayonida ishtirok etadi. Oziq.-ovqat madsulotlarida bu vitamin etishmasa kishi beri-beri kasaliga uchraydi. Natijada asab sistemasining faoliyati, xususan, harakatlanti- ruvchi asablar faoliyati buzilib, kishi shol bo'lib kolishi mumkin.

V vitamin tabiatda keng tarkalgan bo'lib, galla va dukkaklilar doni srmasida, xususan, don kobigi va magzida ko'p rok bo'ladi. Shuning uchun kepakli un va undan tayyorlagan non V, vitaminning yaxshi manbai hisoblanadi. Bu vitamin sut, go'sht va tuxumda ham uchraydi. V vitamin issiqdikka chidamli, kislotali mu- xhitda qizdirilganda yaxshi saklanadi, lekin ishkori muhitda tez parchalanadi. Unga bo'lgan sutkalik extiyoj 1,5—2,0 mg ni tashqil etadi.

V vitamin (riboflavin) fermentlar tarkibiga kirib, u organizmda oqsil va uglevodlarning normal almashinuvi uchun juda zarur. Organizmda bu vitamin etishmasa buy usihi sekinlashadi, oqsillarning hazm bo'lishi susayadi, kuz va teri kasalliklarining ri- vojlanishiga olib keladi. U o'simliklar va hayvonlar organizmda keng tarkalgan, ayniksa xamirturish, ji- gar, sut, sut maxsulotlarida va go'sht mahsulotlarida ko'p bo'ladi. V, vitamin issiqdikka chidamli, lekin yoruglik ta'sirida tez parchalanadi. Unga bo'lgan sutkalik extiyoj 2—2,5 mg ni tashqil etadi.

V vitamin (pantotenat kislotasi) ham fermentlar tarkibiga kirib yog'lar al mashinu vida va asab fao- liyatida rol uynaydi. Bu vitamin etishmasa organizm usishdan tuxtaydi, dermatit kasalligi, sochlarning oqarishi x>amda ichki a'zolar kasalliklari paydo bo'ladi. V, vitamini o'simlik va hayvon mahsulotlarida uchraydi. Uning asosiy manbai jigar, tuxum saript, sut, o'simliklarning yashil qismlari xisoblanadi. Unga bo'lgan extiyoj 5—10 mg ni tashqil kildai. V vitamin (piridoksin) organizmda oqsil hosil bo'lishida ishtirok etadi. Keyingi yillarda bu vitaminning etishmasligi natijasida organizmda lipidlar almashinuvi buzilishi xam aniqaangan. V vitamin go'sht, jigar, baliq, sut, xamirturush va ko'pgina o'simlik maxsulotlarida uchraydi. Unga bo'lgan kundalik extiyoj 2—3 mg ni tashqil etadi.

D, vitamist (stiankobalamin) qon yaratilishi jarayonida, oqsillar, yog'lar xamda A vitaminning sintez qilinishida ishtirok etadi. Organizmda bu vitamin etishmasa xavfli kam qnlilik kasalligi paydo bo'ladi. V12 vitamini faqat xayvonlar maxsulotlarida ko'p uchraydi. Unga bo'lgan kundalik extiyoj 0,002—0,005 mg qilib belgilangan.

N vitamin (biotin) barcha miqoorganizmlarning normal yashashi uchun zarur bo'lgan modstadir. Bu vitamin yog'lar va oqsillarning xosil bo'lishida ishtirok etadi. Agar u organizmda etishmasa soch tuqiladi, teri kasalliklari dermatit, terining qipiqaanishi kuza- tiladi. N vitamin jigar, buyraq sut, tuxum sarigi, yongoqaarda ko'p uchraydi. Unga bo'lgan kundalik extiyoj 0,15—0,30 mg ni tashqil etadi.

RR vitamin (nikotinamid) organizmda biologik oksiddanish jarayonini amalga oshirish uchun juda zarur. Bu vitaminning etishmasligi terining kasallani- shiga, oshqozon-ichaq asab faoliyatining buzilishiga olib keladi. RR vitamini jigar, buyraq sut, go'sht, xamirturish, dukkaklilar, bug'doy nonida ko'p miqdorda bo'ladi. Unga bo'lgan kundalik extiyoj 15—25 mg dir.

Eglarda eriydigan vitaminlar. Bo'larga A, D, E, K vitaminlar kiradi.

A vitamin (retinol) ovqatda etishmasa kishi kse- roftalmiya kuz ogrigiga uchraydi. Bundan taphari xid sezmasliq nafas yo'llarining kasallanishi, sochning avvalroq oqarishi, organizmning kasalliklarga qar- shi kurash qobiliyatining susayishi xam uning etish- masligidan dalolat beradi. A vitamin faqat xayvonot maxsulotlarida uchraydi, o'simlik

maxsulotlarida esa provitamin A-karotin xolida bo'ladi. Karotin sariq rangli faol modda bo'lib, organizmda A vitamining aylanadi. Shuning uchun organizmning A vitamin bilan ta'min etmoq uchun karotinga boy maxsulotlarni Xam iste'mol qashsh kerak Karotin qizil sabzi, uriq shaftoli, kuk piyoz, ismaloq va boshqa sabzavotlar Xamda mevalarda ko'p miqdorda uchraydi. A vitamin esa baliq moyida, jigarda, kitlarning jigarida, tuxum saririda ancha ko'p miqdorda bo'ladi. Organizmning A vitamining bo'lgan kundalik extiyoji 1,5—2,5 mg ni, karotinga bo'lgan extiyoji esa 3—5 mg ni tashqil qiladi.

D vitamin (kalstiferol) organizmda suyak tuki- malarining yaxshi rivojlanishi uchun zarurdir, chunki suyakning asosiy qismini tashqil etadigan fosfor va kalstiy tuzlari shu vitamin yordami bilan xazm bo'ladi. D vitaminning etishmasligi bolalarning raxit bilan kasallanishiga sabab bo'ladi. U baliq moyida, jigarda, sariyogda, dengiz maxsulotlarida uchraydi, O'simlik maxsulotlarida esa uchramaydi. Birok o'simliklarda provitamin D — ergosterol va xolesterol- lar ultrabinafsha 1gurlar ta'sirida D vitamining aylanadi. Bu vitamin issiqdikka chidamlidir, shuning uchun xam oziq-ovqat maxsulotlarini konservalaganda yaxshi saqlanadi.

E vitamin (tokoferol) organizmning ko'payishi jarayonini boshqarishda muxim ahamiyatga ega bo'lib, uning etishmasligi jinsiy faoliyatning buzilishiga olib keladi. Bu vitamin dastlab buvdj murakkablari moyidan ajratib olingan (a va (i-to kofe rol), keyinchalik chigit moyidan xam ajratib olingan (u — tokoferol, grekcha tokos — avlod, fero — tashiymai). E vitamin o'simlik moylari, yongok magzida, makkaju- xori, soyada va kukatlarda uchraydi. U issiqdikka chidamli xisoblanadi, lekin yog'lar oksidlanganda tezda parchalanib ketadi. E vitamining bo'lgan kundalik extiyoji 10—20 mg ni tashqil etadi.

K vitamin (filloxinonlar) konning normal ivi- shi uchun zarur bo'lgan vitamin xisoblanadi va K₁, K₂, K₃ vitaminlarini xam Uz ichiga oladi. Bu vitaminlar O'simliklarda keng tarkalgan. Ular ayniksa O'simlik- larning yashil qismida, ya'ni karamda, beda, ismalok barglarida, shuningdek sabzi va pomidorlarda uchraydi. Ichaga yashovchi ba'zi bakteriyalar K vitamini- ni xosil qilish qobiliyatiga ega. Xayvon maxsulotlaridan faqatgina jigarda K vitamin bo'ladi, boshqa maxsulotlarda uchramaydi.

Bundan tashqari oziq-ovqat maxsulotlari tarkibida uz xususiyatlari bilan vitamining Uxshash moddalar Xam uchraydi. Bo'larga yuqori molekulyar to'yinmagan yog kislotalarini, metil-metioninlarni, paraaminoben- zoy kislotalarini kiritish mumkin.

Fermentlar

Fermentlar, oqsil tabiatiga ega bo'lgan, tirik organizmda kechadigan dar xil kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etadigan va barcha xdyotiy jarayonlarni tezlatadigan biologik katalizatorlardir. Fermentlarning ishtiroki bilan moddalar almashinuvi, o'simlik va hayvonlar organizmda organik moddalarning dosil bo'lishi, ovqatning dazm bo'lishi va boiha jarayonlar sodir bo'ladi. Agar oqsil, uglevod va yokparni tajriba- xona sharoitida parchalash uchun ularga kuchli kislota yoki ishqr kushib yuqori daroratda kaynatish kerak bo'lsa, tirik organizmda esa shu jaraen fermentlar ta'sirida kiska muddatda past daroratda osonlikcha boradi.

Bundan tashqari fermentlar oziq-ovqat madsulotlari ishlab chiqarishda dam katta rol uynaydi. Masa- lan, non, pivo, choy, achitilgan sut madsulotlari, tuzlangan sabzavotlar ishlab chiqarish jarayonlari dam fermentlarning faoliyati bilan boishkstir.

Oziq-ovqat madsulotlari saklanganda dam fermentlarning ishtiroki kattadir. Ba'zi dollarda oziq-ovqat madsulotlarini saklaganda fermentlar ta'sirida ularning sifati yaxshilanadi. Masalan, go'sht va baliq madsulotlari, pishloqaarni saklaganda ularning etilishi bunga misol bo'la oladi. Ba'zan esa oziq-ovqat madsulotlarini saklashda fermentlar bu madsulotlarning buzilishiga dam sabab bo'ladi. Masalan, sutning ochik zavoda turganda achib kolishi va dokazolar dam fermentlar ishtirokida boradi.

Fermentlar oqsil tabiatli birikmalar bo'lganligi uchun ular oqsillarga xos barcha xususiyatlarga ega- dir.

Fermentlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning o'ziga xosligidir. Fermentlarning o'ziga xosligi deganda shuni tushunish kerakki, ma'lum bir ferment fakaugina ma'lum bir reaksiyani tezlatadi. Nemis olimi Emil Fisher iborasi bilan aytganda, ferment substratga kalit kulgga tushgandek moe keli- shi kerak Masalan, lipaza fermenti faqat yog'larga, amiloza fermenti esa faqatgina kraxmalga ta'sir etib, uni parchalashi mumkin.

Fermentlarning xususiyatlaridan biri ularning termolabiligidir, ya'ni fermentlarning faolligi haroratga bog'liqdir. Ularning faolligi 50°S gacha oshib boradi. Bunda harorat dar 10°ga ortganda fermentativ reaksiya 2—3 baravar tezlashishi aniqaangan. Xarorat 50°Sdan oshganla esa fermentlar oqsil tabiatli moddalar bo'lganligi uchun denaturastiyaga uchraydi va natijada fermentlarning faolligi keskin pasayib keta- di. Shuning uchun xam tarkibida kuchli fermentlar mavjud bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlarini, xususan, meva va sabzavotlarni uzoq muddat davomida sovukxonalar- da va maxsus sovutgichlarda past xaroratda saqlashning xam boisi ana shundadir. Fermentlarga xos xususiyatlardan yana biri ularga rN muxitning (ya'ni sharoitning kislotali yoki ish- Korligi) ta'siridir. Xar bir ferment ma'lum bir rN muxitda juda faol ga'sir ko'rsatadi.

Ba'zi fermentlar kuchsiz kislotali va kuchsiz ish- korli sharoitda, ba'zi birlari esa neytral sharoitda eng yuqori faollikka ega bo'ladi. Bundan tashqari fermentlarning faolligi xarorat va rN muxitdap tashqari, reakstion muxitda ishtirok etayotgan barcha kimyoviy moddalarga xam bog'liq- Ularining ba'zilari reakstiya tezligini oshirali, shuning uchun ular aktivator- lar deb yuritiladi. Aktivatorlarga Na⁺, K⁺, Mg²⁺, Ca²⁺, Zn²⁺ kabi metall kationlari kiradi. Ba'zi bir moddalar esa fermentlar faolligini pasaytiradi, shuning uchun ular ingibitorlar deb yuritiladi. Maxsu- lotlarda uchraydigan gerbistidlar, defolyantlar shun- day moddalar qatorga kiradi.


Fermentlar O'ziga xos xususiyatlariga kura va kan- day kimyoviy reakstiyada ishtirok etishiga qarab 6 ta asosiy sinfga bo'linadi: 1. Oksireduktazalar; 2. Gid- rolazalar; 3. Transferazalar; 4. Liazalar; 5. Izomera- zalar; 6. Ligazalar (singetazalar).

Oksireduktazalar organizmlarda bo'ladigan xar xil oksidlanish-qaytarilish reakstiyalarida ishtirok etuvchi fermentlardir. Bu sinfdagi fermentlarga oksidaza- lar, peroksidazalar va katalazalar kiradi. Oksidaza- lar vodorod atomlari yoki elektronlarni bevosita kislorod agomiga uzatuvchi fermentlardir. O'simliklar, meva va sabzavotlar tarkibida ko'p uchraydigan polife- nolokeidazalar fermenti ni oksidazalarga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki. olma yoki kartoshka ke- silsa kesilgan joy qorayib koladi. Qrayib kolishi- ning sababi shundan iboratki, iolifenoloksidaza fermenti ta'sirida olma yoki kartoshkalagi polifenollar oksidlanib. koramtir rangli xinon birikmalarga ay- lanadi. Shuning uchun xam meva va sabzavotlarni konser- valashda qorayib kolishning oldini olish uchun ular par yordamida yoki issiq suv bilan ishlanadi, chunki yuqori darorat polifenoloksidaza fermentlarini uldi- radi. Natijada reakstiya amalga oshmaydi.


Peroksidaza fermenti vodorod peroksid yordamida har xil organik birikmalarning oksidlanishini ka- galizlovchi fermentdir.

Katalaza vodorod peroksianing suv va molekulyar kislorodgacha parchalanishini amalga oshiruvchi fermentlardir:



Gidrolazalar murakkab birikmalarning suv yordamida parchalanish reakstiyalarini amalga oshiradi. Bu gurudstagi fermentlarga lipazalar, peptidazalar, glyukozidazalar va boshqalar kiradi.

Lipazalar ta'sirida yog'larning gidrolizlanishini kuyidagicha yozish mumkin:



R — tegishli yog kislotalar koldigi. Shuning uchun ham yog'lar tarkibida bor bo'lgan oziq-ovqat madsulotlari uzoq saqlanganda taxir maza beradi, chunki gid- rolizlanish natijasida yog kislotalari dosil bo'ladi.

Peptidazalar oqsillar va polipeptidlarning gid- rolitik parchalanishini amalga oshiradi. Natijada murakkab oqsillarning parchalanishidan aminokislota- lar, peptonlar va boshqa oddiy moddalar dosil bo'ladi.

Glyukozidazalar dar xil glyukozidlarning di-tri- va polisaxaridlarning gidrolizlanish va sintezla- mish reakstiyalarida ishtirok etadi. Masalan, amilaza, saxaroza, maltaza, laktaza fermentlari shunday fermentlar qatorga kiradi.

Transferazalar ma'lum atomlar gurudining bir bi- rikmadan ikkinchi birikmaga kuchishini ta'minlovchi fermentlardir.

Ular kuchirilayotgan gurudlarning tu- riga qarab aminotransferazalar, fosfotransferaza- lar va bssshalarga bo'linadi.

Bu sinfga kiruvchi fermentlar xayvonot va o'simliklar organizmlarida bo'ladigan moddalar almashinuvi jarayonida mu.him rol uynaydi.

Liazalar suv ishtirokisiz ma'lum guruxdarning aj- ralishini katalizlovchi fermentlardir. Bu fermentlarning faoliyati tufayli yo kush bog'lar xosil bo'ladi yoki ma'lum xil turlar kush bog'larga birikadi. Liaza guruxiga kiruvchi fermentlardan dekarboqsilazalar ta- biatda juda keng tarkalgan. Masalan, aminokislota- larning dekarboqsillanishi natijasida karbonat an- gdrid va tegishli aminlar xosil bo'ladi. Ayniksa go'sht va baliq oqsillarining chirishida shu reakstiya amalga oshadi.

Izomeraza sinfga kiradigan fermentlar xar xil organik birikmalarning izomerlanish reakstiyalari- ni katilizlaydi.

Ligazalar (sintetazalar) oddiy molekulalardan murakkab organik birikmalar xosil bo'lish reakstiyasini ta'minlovchi fermentlardir. Bu sinfga kiruvchi fermentlar oqsillar, nuklein kislotalar, yog'lar va boshqa murakkab organik birikmalar xosil bo'lishida kat- ta axamiyatga egadir.

1.4. Oziq-ovqat maxsulotlarining tuyimliliigi

Ovqatlanish jarayonida organizm xayot faoliyati uchun muxim oziq moddalar — oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral tuzlarni olib turadi. Bu moddalar esa orga- nizmga kirishi bilan oksidlanib, energiya xosil qiladi va

organizmning energiya ga bo'lgan talabini kondi- rib boradi. Uglevodlar, yog'lar, oqsillarning inson organizmida xazm bo'lganda ajralib chikadigan issiq- lik energiya miqdori kuyidagicha: 1 g yog — 9,3 kkal yoki 38,9 kJ; 1 g oqsil — 4,1 kkal yoki 17,2 kJ; 1 g uglevod — 4,1 kkal yoki 17,2 kJ.

Biror xil oziq-ovqat maxsuloti organizmda uzlash- tirilganida ajralib chikadigan energiya miqdori shu mahsulotning kaloriyaligidir.

Turli oziq moddalari va insonning energiyaga extiyoji uning yoshi, jinsi, geografik yashash zonala- ri, mexnat faoliyatining turiga qarab xar xil bo'ladi (3-jadval).

Ushbu jadvalda ko'rsatilganideq mexnat faoliyati

3-jadval

Катта ёшдаги меҳнатга лаёқатли аҳоли интенсив меҳнатининг турли гуруҳлари бўйича энергия, оқсиллар, ёғлар ва углеводларга бўлган суткалик эҳтиёжи

Меҳ- нат	Ёш гуруҳлари	Эркаклар				Аёллар			
		энергия, кж	оқсиллар, г	ёғлар, г	углеводлар, г	энергия, кж	оқсиллар, г	ёғлар, г	углеводлар, г
I	18-29 ёш	11715,2	91	103	378	10041,6	78	88	324
	30-39 ёш	11296,8	88	99	365	9623,2	75	84	310
	40-59 ёш	10669,2	83	93	344	9204,8	72	81	297
II	18-29 ёш	12552,0	90	100	413	10669,2	77	93	351
	30-39 ёш	12133,6	87	106	399	10250,8	74	90	357
	40-59 ёш	11506,0	82	101	378	9832,4	70	86	323
III	18-29 ёш	11388,8	96	117	440	11296,8	81	98	371
	30-39 ёш	12970,4	93	114	426	10878,4	78	92	358
	40-59 ёш	12342,8	88	108	406	10460,0	75	92	344
IV	18-29 ёш	15480,8	102	136	518	13174,6	87	116	441
	30-39 ёш	15062,4	99	132	504	12761,2	84	112	426
	40-59 ёш	14434,8	95	126	483	12133,6	80	106	406
V	18-29 ёш	17991,2	118	158	602	—	—	—	—
	30-39 ёш	17115,4	113	150	574	—	—	—	—
	40-59 ёш	16317,6	107	143	546	—	—	—	—

xarakterini xisobga olgan xolda ovqat rastionini tufi tuzish uchun ovqatlanish gigienasi sohasidagi mutaxas- sis olimlar katta yohstagi kishilarni 5 guruhga bo'lisha- di. Birinchi guruxga asosan aqaiy mexnat bilan shugul-

lanadigan xodimlar: korxonalarning raxbarlari, bosh- karish pultlarida ishlaydigan xodimlar, dispatcher- lar, barcha xizmatchilar kiradi. Ikkinchi gurudga engil jismoniy mexmat bilan band bo'lgan xodimlar: mehati bir qadar jismoniy kuch talab qiladigan injener- texnik xodimlar, tibbiyot hamshiralari, sotuvchilar, provoaniklar, tikuvchilar va boihalar kiradi. Uchinchi guruxga mexnatining oshr-engilligi urtacha xodimlar: slesarlar, sozlovchilar, dastgoxlarda ishlovchilar, xi- rurglar, ximiklar va boihalar kiradi. Turtinchi guruh- ga ofhp jismoniy mehnat xodimlari ko'rilish ishchila- ri, shaxtiyorlar, metallurglar, duradgorlar va boshqa- lar kiradi. Beshinchi guruhga esa ofhp mehnat bilan band bo'lgan xodimlar: er ostida ishlaydigan kon ish- chilari, daraxt kirkuvchilar, gisht, teruvchilar, beton- chilar, er kazuvchilar va boshqalar kiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyasi amalda ularning kimyoviy tarkibiga qarab aniqaanadi. Xar Qanday maxsulot 100 gramining energiya berish qobi- liyatini bilish uchun oqsil, eF va uglevodlarning ka- loriyasini ularning shu mahsulotdagi foiziga ko'pay- tirib, chikkan natija jam qilinadi. Mahsulotlar- ning energiya berish dobiliyatini kuyidagi misolda kuramiz.

Misol. Agar sigir sutining okleil miqdori 2,8 fo- izni, yog miqdori 3,2 foizni, uglevodlar miqdori 4,7 foizni, organik kislotalar miqdori 0,14 foizni tashqil etea 100 g sutning energiya berish qobilyati necha kilo Joulga teng? Yuqorida 1 g yog, oqsil, uglevodlarning energiya berish qobilyatini aytib utgan ediq Shu asosda 100 g sutning energiya berish qobilyatini X bilan belgilasaq u xolda:

$$X = (17,2 \text{ kJ} \cdot 2,8) + (38,9 \text{ kJ} \cdot 3,2) + (17,2 \text{ kJ} \cdot 4,7) + (15,1 \text{ kJ} \cdot 0,14) = 48,16 \text{ kJ} + 124,48 \text{ kJ} + 80,84 \text{ kJ} + 2,11 \text{ kJ} = 254,59 \text{ kJ}.$$

Demaq bizning misolimiz bo'yicha 100 g sutning energiya berish qobilyati 254,59 kJ ga teng ekan.

Bu yo'l bilan xisoblab toilgan energiya miqdori faqat mahsulotlar tarkibidagi mod dalar 100 foiz xazm bo'lgandagina to'g'ridir. Vaxolanki, hech qanday mahsu-

lot va ularning tarkibiga kiruvchi moddalar organizmda 100 foiz dazm bulmaydi. Shuning uchun dam bu yo'l bilan hisoblab gopilgan energiya miqdori madsulot- larning nazariy energiya berish qobilyati deb yuri- tiladi. Shu sababdan biror madsulotning energiya be- rishi daqasta ma'lumotga ega bo'lish uchun shu madsulot tarkibidagi moddalarning dazm bo'lish darajasini 95 foiz deb olsaq unda 100 g sutning dakskiy energiya

$$\frac{254,59 \cdot 95}{100} = 241,84 \text{ kJ}.$$

Taqorlash uchun savollar

Oziq-ovqat madsulotlari tarkibiga kiruvchi modstalarni aytib bering.

Suvning inson organizmi uchun qanday axamiyati bor?

Oziq-ovqat madsulotlari tarkibida qancha miqdorda suv bo'ladi? Misollar keltiring.

Oziq-ovqat maxsulotlarida qanday xolatlarida uchraydi?

«Kul» deganda nimani tushunasiz va kul miqdor maxsulot si- fatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Oqsil, yog'lar, uglevodlarning oziq-ovqat maxsulotlarida miqdori bo'yicha misollar keltiring va ularning axamiyatini gapirib bering.

Oziq-ovqat maxsulotlarining tuyimliliigi (energiya berish qobilyati) deganda nimani tushunasiz?

berish qobilyati kuyidagicha bo'ladi:

II b o b. Don va un madsulotlari

Don madsulotlariga don va donlarni qayta ishlab olingan madsulotlar — un, yorma, non va makaron madsulotlari kiradi. Bugungi kunda respublikamizda don etishtirishni ko'paytirish asosida don mustakilligi- ni ta'minlashga alodida e'tibor berilmoqaa.

2.1. Don

Botanik xususiyatlariga kura donlar asosan 3 gurudga bo'linadi: boshoqai, dukkakli va grechixa ekinlari. Asosiy boshoqai ekinlarga bug'doy, javdar, makkajuxori, sholi, arpa, tarik va suli kiradi. Dukkakli ekinlar oilasidan oziq-ovqat axamiyatiga ega bo'lganlari nuxat, loviya, mosh, yasmiq soya xisoblanadi. Uchinchi guruxga kiruvchi don ekin grechixa xisoblanadi.

Donning tuzilishi. Xamma donlarning tuzilishi xam deyarli bir-biriga uxshashdir. Xamma donlar xam pustlok bilan koplangan bo'ladi. Don pustloqaari sirt- Ki va ichki pustloqaardan tashqil topgan. Bu pustloq- lar don massasining 6—8 foizini tashqil etib, aso- san tarkibi kletchatka, gemistellyo'loza kabi moddalar- dan iboratdir. Ularning un va yormalar tarkibida ko'p yoki oz miqdorda bo'lishi maxsulot rangining uzgari- shini belgilaydi.

Pustlardan keyin "don aleyron qavatdan tashqil topgan bo'ladi. Aleyron qavat donning turiga qarab don massasining 3—14 foizini tashqil etadi. Masalan, bug'doyda aleyron kavatning xissasi 3,5—9,5 foizni tashqil etsa, bu ko'rsatkich tarik donida 3—6 foizni, arpa donida esa 12—14 foizni tashqil etadi.

Endosperma yoki unsimon uzak don massasining 80 foizga yaqinini tashqil etadi. Bu kiem un va yorma maxsulotlari ishlab chiqarishda eng qimmatli xisoblanadi. Endosperma asosan kraxmaldan va oqsil mod- dalardan, kam miqdorda qand, yog, vitaminlar va mineral moddalardan tashqil topgan bo'ladi. Endosper- madan asosan yuqori navli unlar tayyorlanadi.

Murtak tirik xujayralardan tashqil topib, donning usishini ta'minlaydi. Murtak bug'doyda don massasining 2,5 foizini, sulida — 3, guruchda — 2, mak- kajuxorida — 10 foizini tashqil etadi. Murtaqaa boshqa qismlarga nisbatan ko'p miqdorda yog, oqsil, qand, mineral moddalar, vitaminlar va fermentlar bo'ladi.

Donning kimyoviy tarkibi. Donning inson xayotida axamiyati asosan uning kimyoviy tarkibi bilan belgi- lanadi.

Donning kimyoviy tarkibi uning turiga, navi- ga, usish sharoitdari, agrotexnik jarayonlarning olib borilishi va boshqa omillarga qarab birmuncha uzga- rib turadi. Lekin, xar xil sharoitda xam don tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil, uglevod, yog, mineral moddalar va vitaminlar albatta bo'ladi. Boshqai donlarda urtacha oqsil miqdori 10—12 foizni, uglevodlar — 65—70 foizni, yog — 1,5—4,0 foizni, mineral moddalar esa 1,5—2,0 foizni tashqil etadi.

Dukkakli donlar esa oqsilga boyligi bilan ajralib turadi va ularda oqsil miqdori 20—30 foizni tashqil etadi.

Donda uchraydigan asosiy vitaminlar — Vr V2, V3, I, V , RR, E va karotin xisoblanadi. Bu vitaminlar asosan donning aleyron qavati va murtagida uchraydi.

Donning sifatiga talablar. Donlarning sifatini baxolashda organoleptik va laboratoriya usullaridan keng foydalaniladi.

Donning asosiy organoleptik ko'rsatkichlariga rangi, xidi va ta'm ko'rsatkichlari kiradi.

Donning rangi uning yangi yoki eskiligidan dalo- lat beradi. Yangi yigishtirilgan don tabiiy jilola- puvchan, aynan shu donga xos rangga ega bo'ladi. Don rangining uzgarib tovlanishini yuqotishi donning noqulay sharoitda yigishtirilganligi, quritilganligi yoki saqlanganligi natijasida vujudga keladi.

Donning xvdi o'ziga xos, kam seziluvchan bo'ladi. Donda begona xidlarning paydo bo'lishi donning tashqi muxitdan xar xil begona xiddarni o'ziga singdiri- shi yoki saqlaganda mogorlanishi, chirishi, qizib ke- tib kuyishi natijasida vujudga keladi.

Donning ta'mi kam seziluvchan, aynan shu donga xos bo'lishi kerak Donlar ba'zan achchiq ta'm beruvchi begona utlar urug'lari bilan ifloslangan bo'lsa, bunday donlarda tabiiyki achchiq ta'm paydo bo'ladi.

Laboratoriya ueuli bilan esa donlarning namligi, begona aralashmalar bilan ifloslanganlik darajasi, naturasi, ombor zararkunandalari bilan zararlangan- lik darajasi aniqaanadi. Don to'g'risida yanada keng- roq ma'lumotga ega bo'lishi uchun donning zichligi, 1000 donnasining massasi, don magzining shishasi- monligi, oqsil miqdori, kleykovina miqdori va si- fati xamda donda kul miqdori kabi ko'rsatkichlari Xam aniqaanishi mumkin.

Namlik don uchun asosiy ko'rsatkichlardan biri Xisoblanady. Kuruq bug'doy, suli, arpa donlari tarkibida suv miqdori 14 foizdan ortiq bulmasligi kerak Agar don tarkibida suv miqdori 17 foizdan ortik bo'lsa, bunday donlar xul donlar deb yuritiladi va ular uzoq muddat saqlashga yaroksiz xisoblanadi.

Donlarning begona aralashmalar bilan ifloslan- ganligiga qarab ularning tozaligi to'g'risida xulosa kilinadi. Donlar tarkibida uchraydigan begona aralashmalar asosan 2 guruxga bo'linadi. Birinchi guruxiga ozuqaviy qiymatga ega bulmagan aralashmalar (kum, tosh zarrachalari, zaxarli urug'lar, o'simlik barglari, poyalari, buzilgan yaroksiz donlar va bonhalar) kiradi. Ikkinchi guruxga esa ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan boshha aralashmalar kiradi. Bug'doyda birinchi guruxga kiruvchi aralashmalar 5 foizdan, ikkinchi guruxga kiruvchi aralashmalar esa 15 foizdan ko'p bulmasligi talab etiladi.

Natura deganda 1 litr don massasining grammlarda ifodalangan miqdori tushuniladi. Natura donning eti- lib pishganligidan dalolat beruvchi ko'rsatkichdir. Donning naturasi qancha katga bo'lsa, bu donda endosperma Xissasi shuncha ko'p bo'ladi. Donning naturasiga uning ifloslanganlik darajasi, shakli, don sirtining xola- ti va boshqalar katta ta'sir ko'rsatadi. Urtacha olganda buvdoy doni naturasi 750 grammni tashqil etsa, su- liniki esa 450 grammni tashqil etadi.

Don uchun asosiy ko'rsatkichlardan yana biri ombor zararkunandalari bilan zararlanganligidir. Ombor za- rakunandalari bilan zararlanishi natijasida donning sifati juda pasayib ketadi va xatto ovqatga ishlatishga yaroksiz xolatga xam kelishi mumkin.

2.2. Un

roq dagalrok bo'ladi. Bu unda kepak 10 foizga yaqinni tashqil etib, rangi ok kungirok bo'ladi.

Jaydari tortilgan un javdarni maydalash natijasida olinib, bunda kepagi ajraUn donni kukunsimon xolatda kelguncha ko'p marta maydalash yo'li bilan olingan maxsulot xisoblanadi.

Un turlarga, tiplarga va navlarga bo'linadi. Un tortish sanoati asosan bug'doy va javdar unlari ishlab chiqaradi. Unning turlari qaysi soxada ishlatilishi shiga qarab tiplarga bo'linadi. Masalan, bug'doy unlarini 3 tipda ishlab chiqariladi: nonbop, makaron maxsulotlari olish uchun va qandolatchilik uchun ishlatiladi. Xar bir un tiplari uz navba- tida navlarga bo'linadi.

Un tortish. Un ishlab chiqarish jarayoni tortish deb ataladi. Un tortish jarayonlari asosan ikki bos- Kichni uz ichiga oladi: donni tortishga tayyorlash va donni maydalash.

Donni tortishga tayyorlash maydalanadigan partiya- ni xosil qilish, begona aralashmalardan tozalash, donning namligini belgilangan me'yorga keltirish (kon- distiyalash) kabi jarayonlarni uz ichiga oladi.

Donni maydalash (tortish)ning ikki xil usuli mav- jud: oddiy va taqoriy tortish. Oddiy tortish usulida don tortish sistemasidan bir marta utkaziladi, tak- roriy tortishda esa don bir nechta sistemalardan utka- zib maydalanadi.

Oddiy (dagal) tortganda dagal burdoy va dagal javdar unlarini olinadi. Oddiy usul bilan burdoy doni tortilganda uning chikishi 96%ni, javdar doni tor- gilganda esa 95% ni tashqil etadi. Unning chikishi deganda tortilgan un massasining qayta ishlangan don massasiga nisbatining foizlarda ifodalangan miqdori tushuniladi.

Taqoriy-murakkab tortish usulida esa birinchi 2— 3 sistemalarda don avval bir necha kpsmga bo'laklana- di. Keyin esa bu bo'laklangan massalar maxsus elak- darda elanib, sifatiga qarab saralanadi. Saralashda ular rangi bo'yicha o q, ola-bo'la va koramtir bo'lakcha- lar xolida aloxida-aloxida ajratiladi. O q don bo'lak- chalari faqat donning endosperma qismidan tashqil topgan bo'lsa, ola-bo'la va koramtir rangli bo'lakcha- larda esa kepakni xosil kiluvchi- kobiq aleyron Kobiq, murtak qismlarning xissasi ancha ko'p bo'ladi. Rangi bo'yicha saralangan bu qismlar aloxida-aloxida maxsus valuyli stanoklarda maydalanadi va bu siste- malar maydalash sistemalari deb ataladi. Bu sistema- larda don bo'lakchalarining qanday saralanganligiga qarab xar xil sifatga ega bo'lgan 12—20 potok un hosil bo'ladi. Ma'lum sistemalardan chiqaan unlarini bir-biriga aralashtirish natijasida xar xil nav un- lar olish mumkin.

Unlar shah assortimenti va iste'mol xususiyatlari. Un ishlab chiqarishda asosiy o'rnlarni bug'doy uni va javdar unlarini egallaydi. Arpa, makkajuxori, soya va boshqa donlardan olinadigan unlar xam kam miqdorda bo'lsada ishlab chiqariladi.

Bug'doy uni qaysi soxada ishlatilishiga qarab non- bop va makaron maxsulotlari ishlab chiqarishga muljal- langan bo'ladi. Non ishlab chiqarishga muljallangan burdoy unlarini qupchatka, oliy, birinchi, ikkinchi pav xamda dagal tortilgan un navlariga bo'linadi.

Qupchatka uni kesimi shishasimon yumshok burdoy- ga shishasimon kattik bug'doyni aralashtirib tortilgan un xisoblanadi. Qupchatka uni bir xil ulchamdagi kichik endosperma zarralardan iborat bo'lib, unda bosh- Ka un navlariga Qaraganda kletchatka, kul, eF, qand moddalari miqdori kamrok bo'lsa-da, oqsil miqdori 15 foizni tashqil etadi.

Oliy navli bug'doy uni shishasimon va yarim shishasimon yumshoq bug'doydan olinadi. Unning rangi oqaan ok- sariqok tushgacha bo'ladi. Bu un tarkibida kepak deyarli bulmaydi. Kul bilan ushlab ko'rilganda juda mayin sezilib, mayda bir xil zarrachalardan tashqil topgandir.

Birinchi nav un yarim shishasimon yumshok bug'doydan olinadi. kul bilan ushlab ko'rilganda oliy navli unga qaraganda sal dagalroq chunki bu unda kepak — 3—4 foizni tashqil etadi. Shu sababli xam rangi oq- sargish bo'ladi. Ikkinchi nav un yumshok bug'doydan tayyorlanadi. Bu unda un zarrachalari birinchi nav undagiga qaraganda sal kattaroq kul bilan ushlab ko'rilganda dagalligi seziladi. Bu unda kepak miqdori 8—10 foizni tashqil etadi, rangi ok- kukimtir xolatda bo'ladi.

Dagal tortilgan un (jaydari) yumshok bug'doydan kepagini ajratmasdan ishlab chiqariladi. Rangi kungir- rok tusli bo'lib, un zarrachalarini kul bilan ushlab ko'rilganda dagalligi darxol seziladi.

Javdar uni. Bu un tortilishiga qarab 3 navda ishlab chiqariladi: elangan, birlamchi tortilgan va jaydari. Elangan (kepaksiz) un mayda tortilgan (ipak elagaan utkazilgan) bo'ladi. Bu unning rangi ok-kukish tusda bo'ladi.

Birlamchi tortilgan javdar unining zarrachalari elangan un navidan sal kattatilmaydi. Bu un juda dagal, bir xil ulchamga ega bulmagan zarrachalardan tashqil topib, rangi kungir tusda bo'ladi. Jaydari tortilgan un javdar unining asosiy xili xisoblanadi.

Unning kimyoviy tarkibi. Unning tarkibi birinchi navbatda donning kimyoviy tarkibiga bokpik bo'ladi. Oqsillar unda ularning turiga qarab 9—16 foizni tashqil etadi, lekin past navli unlarda yuqori navli unlardagiga nisbatan oqsil miqdori ko'proq bo'ladi.

Uglevodlar unda asosan kraxmal va kletchatkadan tashqil topgandir. Unda qand (glyukoza, fruktoza, saxaroza, maltoza) nisbatan kam bo'ladi. Unda kraxmal va kletchatka moddalarining miqdori bo'yicha ma'lum bog'liqdik mavjud. Agar unda kraxmal miqdori kancha ko'p bo'lsa, shuncha kletchatkaning miqdori kam bo'ladi, aksincha, kraxmali kam bo'lgan unlar tarkibida kletchatka miqdori ko'p bo'ladi. Unning tarkibida urta Xisobda 70 foiz kraxmal bo'ladi.

Ef moddasi un tarkibida 2,0 foizdan ortik bulma- sa-da, unning tezda achib, taxirlanib qolishini kel- girib chiqaradi.

Mineral moddalar un tarkibida unning turiga va naviga qarab 0,5—2,0 foizni tashqil etadi.

Vitaminlar un tarkibida V₁, V₂, V₃, V₆, B₁₂, E, RR, karotin (provitamin A)dan iboratdir. Donning pusti, aleyron koboti va murtagi mineral moddalar- ga va vitaminlarga boy bo'lgani uchun ular past navli unlarda ko'proq bo'ladi. Unlarda kraxmalni parchalashda ishtirok etuvchi amilaza va oqilni parchalashda ishtirok etuvchi pro- teaza fermentlarining axdmiyati katgadir.

Unlarning sifatiga talablar. Unlarning sifati organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida aniqaanadi.

Organoleptik ko'rsatkichlaridan eng aso- siylari rangi, xvdi va ta'mi xisoblanadi.

Bug'doy uni oq rangdan ok-sargish ranggacha, javdar uni esa oqaan kukish ranggacha bo'ladi. Un uzoq saqlan- ganda okarishi kuzatiladi. Bunga sabab undagi rang beruvchi moddalarning, ayniksa karotinning parchala- nishi sabab bo'ladi.

Unning xidi o'ziga xos, yokimli, kam seziluvchan bo'lishi kerak

Unning ta'mi shirinrok bo'lib, achchik va taxir ta'mga ega bulmasligi kerak Unni chaynab ko'rilganda gichirlamasligi kerak Chaynaganda gichirlaydigan unlar tarkibida kum, loy, tuprok aralashmalari borli- gidan dalolat beradi va bunday unlar standart tala- biga javob bermaydigan unlar deb topiladi.

Unlarning sifatini ekspertiza qilishda aniqaa- nadigan asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ularning namligi, kul moddasining miqdori, nordonli- gi, kleykovina miqdori kabi ko'rsatkichlari kiradi.

Namlik unning asosiy ko'rsatkichlaridan biri Xisoblanib, standart talabi bo'yicha 15 foizdan ortik bulmasligi kerak

Bug'doy unining nordonligi a'lo navlarida 3° dan, dagal tortilganlarida esa 5°dan ortik bulmasligi kerak

Kleykovina bug'doy unining nonboplik xususiyati- ni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xisobla- nadi.

Kleykovina asosan suvda erimaydigan gliadin va glyutenin oqsillaridan tashqil topgandir. Bug'doy uni tarkibida kuyidagicha miqdorda kleykovina bo'lishi kerak (kamida %): oliy navda — 28; birinchi nav- da — 30; ikkinchi navda — 25; jaydari unda — 20.

Unlar tarkibida kleykovinaning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlari xam aniqaanadi.

Kleykovinaning sifat ko'rsatkichlari chuzi- luvchanligi, qayishqqaigi va rangi bilan xarakter- lanadi.

2.3. Yorma

Yorma bu donni pusti, aleyron qbigi, murtagidan maxsus ishlov berib ajratish asosida olingan butun Xoldagi yoki maydalangan don maxsulotidir.

Yormalar boshqai galla ekinlari, grechixa va dukkakli o'simliklarning donlaridan olinadi.

Yorma ishlab chistarish. Yorma ishlab chiqarish kuyi- dagi jarayonlarni uz ichiga oladi: donni begona ara- lashmalardan tozalash, gidrotermik ishlov berish, donni saralash, oqaash, tozalash va silliqash (donga say- qal berish).

Donni begona aralashmalardan tozalash elaklarda elash yoki magnitli moslamalardan utkazish yo'li bilan olib boriladi.

Grechixa, suli, makkajuxori, nuxat kabi donlarga ishlov berishda ularning pustlogining yaxshiroq shi- linishini ta'minlash maqsadida bug bilan bosim ostida namlanadi va keyin esa 12—14% namlik qlgun- cha quritiladi. Bunday ishlov berish natijasida donning tuyimlilik qiymati, saqlashga chidamliligi or- tadi va yorma tez pishish xususiyatiga ega bo'ladi.

Don ulchamlarining bir xilligini ta'minlash uchun don xar xil ulchamdagi elaklarda elanib saralanadi. So'ngra don maxsus mashinalarda oqaanadi (pustidan tozalanadi). Keyin esa pustdan ajratilgan donlar maxsus elaklarda elanib oqaangan, oqaanmagan va maydalangan don qismlariga ajratiladi.

Ba'zi bir yormalarni ishlab chiqarishda oqaangan donning sirtidagi pustlari, murtagidan tozalash uchun va ma'lum bir dumaloq yoki oval shakl berish uchun maxsus moslamalar yordamida shilib ishlanadi. Bunday ishlov berish natijasida donning sirti yaltiramaydi va gadir-budir bo'lib kol ad i.

Ba'zi bir yormalarni (guruch, nuxat) ishlab chiqa- rishda donning sirtini yaltiratish uchun, ya'ni unga chiroyli tue berish uchun yana maxsus moslamalarda par- dozlanib, donni aleyron kavatidan xam tuda tozala- nadi. Bunday ishlov berish sayqal berish, pardozlash (polirovka) deb yuritiladi. Sirtiga saykal berib ish- langan donlar faqat donning endosperma qismidan tashqil topgan bo'ladi. Bunday donlarning biologik Qiymati nisbatan past bo'lsa-da, ular yaxshi xazm bo'ladi va tez pishadi.

Tozalangandan va sayqallangapdan keyin yorma maxsus moslamalarda elanib gard, mayda va metall ara- lashmalardan ajratilib koplarga joylanadi.

Yormalarnipg assortimenta. Yormalar qanday dondan olinganligiga qarab turlarga bo'linadi.

Ishlov berish usuliga qarab sholidan pustlogidan tozalangan, saykallangan va maydalangan (ok ushok) yormalar olinadi. Pustlogidan tozalangan guruch yormasi — sholi avval gul puchoqaardan xalos kilinib, keyin xosil, ypyF pustlari, murtaq qisman aleyron Kavatlardan tozalangan dondan iboratdir. Sifatiga qarab bu tur guruch yormalari oliy, 1- va 2-navlarga bo'linadi.

Saykallangan guruch yormasi tozalangan yormani say- kallovchi mashinalarda kushimcha ishlov berish natijasida olinadi. Umuman bunday yormalar shishasimon guruchdan olinib, butunlay endospermadan tashqil to- padi. Bu xil guruch yormalari xam sifatiga qarab oliy, I- va 2-navlarga bo'linadi.

Ok ushok (maydalangan guruch) — bu yorma tozalangan va saykallangan guruch tayyorlash jarayonida xosil bo'lib, ulchamlari butun guruch ulchamining 2/3 qismi- dan kichik bo'ladi. Ok ushok navlarga bo'linmaydi.

Arpadan ikki xil yorma ishlab chiqariladi: arpa yormasi va perlovka yormasi.

Arpa yormasi gulpuchoqaardan xalos etilgan, maydalangan, shatali xar xil arpa donlaridan iboratdir. Bu yormaning perlovka yormasi turidan farqi shundaki, don sirtki kobiqaardan tozalanmasdan maydalanadi. Donalarning katga- kichikligiga qarab elaklardan utka- zilib, uch nomerga saralanadi: 1-nomer, 2-nomer va 3- pomer. Birinchi nomer eng katta ulchamli donachalar- dan tashqil topgan bo'ladi.

Perlovka yormasi ar pani tozalash va saykallash natijasida gulpo'choqlardan, urug' pustlaridan, murtagi- dan, qisman aleyron kavatidan xalos etilib olina- digan butun yoki maydalangan arpa donlaridan iboratdir. Donlarning shakli yumaloq sirti silliq oqaan yashilrok oq ranggacha bo'ladi. Donlarning katga-kichik- ligiga qarab bu tur yormalar 1-, 2-, 3-, 4- va 5- nomer- larga bo'linadi. Ulchamlari bo'yicha 1- nomerli yorma eng katta xisoblanadi.

Bug'doydan ikki xil yorma olinadi: manniy va tozalangan bug'doy yormasi. Manniy yorma yuqori nav bug- doyni tegirmonda tortib un qilayotganda 2 foiz mik- doridagi eng yaxshi ok ushoklarni saralab chiqarish yo'li bilan olinadi. Bug'doy turiga qarab manniy yorma: T, MT va M markalariga bo'linadi.

T markali yorma kattik kuzgi bug'doydan olinadi. MT markali yorma yumshok baxorgi bug'doy va ozrok miqdorda kattik bug'doy aralashtirib olinadi. M markali yorma yumshok bug'doydan olinadi.

Tozalangan bug'doy yorma asosan kattik bug'doydan, kamrok miqdorda shishasimon yumshok bug'doydan olinadi. Donalarining ulchamiga qarab ular ikki xilga aj- ratiladi: Poltava va Artek yormalari. Poltava yormasi katgik yoki shishasimon yumshok bug'doydan avval mur- tagi, keyin esa qisman ypyF pustlaridan va aleyron kavatidan tozalanib, saykallash yo'li bilan olinadi. Donalarning katga-kichikligiga qarab, galvirlash yo'li bilan besh nomerga ajratiladi. Shulardan 1-, 2-, 3-, 4- nomeri Poltava yormasi va 5- nomeri esa Artek nomi bilan savdoga chiqariladi. Sulidan kuyidagi yorma turlari olinadi: bug'langan butun suli yormasi, yassi suli yormasi, Gerkules yormasi va talkon.

Bug'langan butun suli yormasi gulpo'choqsiz, qisman xosil pusti olingan butun suli donidan iboratdir. Yassi suli yormasi maydalanmay tozalab-bug- langan yormadan uni taram-taram yo'lli valestlarda yassilab olinadi. Gerkules yormasi oliy navli butun tozalab-bug'langan yormadan sillik valestlarda yassilab, kalinligi 0,5—0,7 mm li yaprok yormalarga ay- lantirib olinadi. Talkon tashqi ko'rinishidan unga uxshash, sargash rangli yormadir. Talkon issiq suvda bukib, butkasimon massa xosil qiladi. Bu butka organizmda tezda xazm bo'ladi. Shu sababli xam talkon bolalar ovqati va parxez maqsaddarda ishlati- ladi. Tavsiflangan yormalardan tashqari grechixa, mak- kajuxori va dukkakli donlardan xam yormalar ishlab chiqariladi.

Yormalarnig kimyoviy tarkibi. Yormalarning kimyoviy tarkibi va ovqatlik qiymati donlarga nisbatan bir- muncha yuqori xisoblanadi, chunki yormalarni olishda don kam ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan qismlardan to- zalanadi. Oqsillar yormalarning eng muxim tarkibiy qismi Xisoblanadi. Yormalar tarkibidagi oqsillar asosan to'liq qiymatli va tez xazm bo'ladi. Oqsillar miqdori boshqai donlardan olingan yormalarda 7—12 foizni, dukkakli o'simlik donlaridan olingan yormalarda esa 23—25 foizni tashqil etadi.

Yormalar tarkibidagi uglevodlar asosan kraxmal- dan, ozroK miqdorda qand va boshqa uglevodlardan iboratdir. Ularda uglevoddarning umumiy miqdori 60—75 foizni tashqil etadi.

Yormalarda yog 1—2 foizni tashqil etadi, lekin suli yormasi bundan istisno. Suli yormalarida yog miqdori urtacha 6—7 foiz miqdorida bo'ladi.

Bo'lardan tashqari yormalar tarkibida xilma-xil mineral moddalar va vitaminlar xam bo'ladi. Ular asosan inson organizmi uchun V guruxiga kiruvchi vitaminlarning asosiy manbai sanaladi.

Yormalar sifatiga kuyiladigan talablar. Yormalarning sifati xam deyarli don maxsulotlarining sifati singa- ri aniqaanadi. Yormalarning sifatini baxolash uchun organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asos bo'lib xizmat qiladi. Yormalarning asosiy organoleptik ko'rsatkichlari — tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi va xidi xisoblansa, fizik- kimyoviy ko'rsatkichlari — nam- ligi, begona aralashmalar bor-yuqaigi, yaxshi sifatli magizlar miqdori va boihalar xisoblanadi. Ba'zi xol- larda yormalar tarkibida kraxmal, oksid, vitamin, mineral moddalar miqdori va ularni pishirganda bukish darajasi, gayyorlangan butkaning xidi, ta'mi kabi ko'rsatkichlari xam aniqaanishi mumkin.

2.4. Donlarni, unlarni va yormalarni saqlash

Don, un va yorma maxsulotlarini saqlash jarayonida ularda biokimiviy, fizikaviy, kimyoviy va miqo- biologik uzgarishlar ro'y beradi va bu uzgarishlar don va don maxsulotlarining iste'mol xossalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Don maxsulotlarini saqlaganda boradigan jarayon- larning tezligi ulardagi namlik va haroratga, xud- di shuningdek maxsulotlar saqlanayotgan muxitdagi Xavoning nisbiy namligi, chdroratiga va xavoning erkin tushib turishi

darajasiga bog'liqdir. Don maxsulotlarining sifatini ta'minlash uchun omborxonalarda ma'lum qulay nisbiy namlik va xarorat bo'lishi, sanitariya-gigiena talablariga amal kilinishi, saqlanayotgan maxsulot doim kuzatib borilishi talab etiladi.

Don maxsulotlarining saqlanish muddati xam xar xil. Masalan, bug'doyni turt yilgacha saqlash mumkin. Bug'doyga nisbatan kiskarok muddatda makkajuxori, tariq, suli, dukkakli donlar saqlanish xususiyatiga egadir. Donga nisbatan un va yorma maxsulotlari yomonroq saqlanadi. Un maxsulotlaridan bug'doy unining oliy va 1- navlari, javdar, guruch, arpa uni esa soya, suli, makkajuxori unlariga nisbatan yaxshirok va uzoqroq saqlanish muddatiga egadir. Kuruq kizimagan, ombor zararkunandalari bilan zararlanmagan don maxsulotlari kuruq shamollatiladigan xonalarda —5°C dan +5°C gacha bo'lgan xaroratda va xavoning nisbiy namligi 60—70% bo'lgan sharoitda yaxshi saqlanadi. Omborxonalarda xavoning nisbiy namligi 75 foizdan, xarorat esa 10°C dan ortiq bo'lgan Xollarda don maxsulotlari namlanib, mogorlab qoladi. Xuddi shuningdek omborxonalarda xaroratning keskin uzgarishi xam don maxsulotlarining namlanishi- ni keltirib chiqarishi mumkin.

Don maxsulotlarining uzoq saqlanishini ta'minlash uchun ularni kish paytlari shamollatish yo'li bilan sovutilishi, baxor va yozda esa don maxsulotlari massasida past xaroratning bo'lishiga erishish masadga muvofiqdir.

Don maxsulotlarini saqlashning ikki xil usuli mavjud: idishlarda va idishsiz.

Gul asallari qaysi o'simlik gulining sharbatidan olinganligiga qarab paxta, kungaboqar, kashkarbeda, fechixa, archagul, arguvon (lipa), yantok va boshqa xil asallarga bo'linadi. Bu asallar bir-biridan rangi, ti- niqai, yopiihokligi, suyuk yoki quyugligi, kidi, ta'mi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha farq qiladi.

Bundan tashqari uyadan olinish usuli va uning dast- labki ishlatilishiga qarab tabiiy asal mumli, markaz- dan kochirma kuch ta'sirida olingan, Uzi okib chikkan, eritilgan va quyuq asal kabi turlarga ham bo'linadi.

Asallarning sifat ekspertizasini utkazishda organoleptik ko'rsatkichlardan ransh, ta'mi, kidi va konsisteistiyasi aniqaanadi. Ularning asosiy fizik- kimyoviy ko'rsatkichlariga esa suv miqdori, qayta- ruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand, saxaroza miqdori va diastoz soni kabi ko'rsatkichlari aniqaanadi.

Asallarni Yu°S dan baland bulmagan xaroratda va xavoning nisbiy namligi 75 foiz bo'lgan sharoitda saqlash tavsiya etiladi.

4.5. Qandli qandolat maxsulotlari

Qandolat maxsulotlari yuqori energiya berish qbi- liyatiga ega bo'lgan, qandga boy, shirin, mazali, O'ziga xos xidli va yaxshi xazm bo'ladigan oziq-ovqat maxsulotlari xisoblanadi. 100 g qandolat maxsulotlarining energiya berish qobilyati 1200—2500 kJ atrofida bo'ladi. Ko'pchilik qandolat maxsulotlarining biologik qiymati uncha yuqori bulmaydi, chunki ularni ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyolarda shu moddalar juda kam miqdorda bo'ladi, ba'zilar esa yuqori Xaroratda ishlov berilganda parchalanib ketadi.

Xozirgi kunda respublikamizda qandolat maxsulotlari ishlab chiqarishni oshirib, axolining talabini tularok kondirishga katta e'tibor berilmoqaa. Ishlab chiqarilayotgan qandolat maxsulotlarining tarkibida qand miqdorini kamaytirib, ularni vitaminlar, aminokislotalar, pektin va boshqa biologik faol moddalar bilan boyitish, qandolat maxsulotlari assorti- mentini ko'paytirish xamda ularni saqlash muddatini oshirish asosiy muammolardan biri xisoblanadi. Qa- doqaangan va urab kuyilgan qandolat maxsulotlarining xaridorgirligini oshirish, tashqi ko'rinishini yaxshi- lash uchun chiroyli etiketka, kutichalar tayyorlash, urash uchun ishlatiladigan materiallarning yangi xillarini, ayniksa inson organizmi uchun zararsiz polimer mage- riallarini ishlab chiqarish kengaytirilmoqaa.

Qandolat maxsulotlari ishlab chiqarishda va yangi korxonalar kurishda xozirgi zamon fan-texnika yutuq- larini kengrok qo'llsh, avtomatik boshqaruvga asos- langan texnologiyani keng joriy etish xam eng dol- zarb masalalardan biri xisoblanadi.

Qandolat maxsulot lari ishlab chiqarishda juda xilma-xil xom ashyo: qand, patoka, bug'doy, loviya, suli unlari, kraxmal, asal, sariyog, kofe, yongoq sut va sut maxsulotlari, turli mevalar va ularning suvlari, sharbatlari, 'kakao dukkagi va xokazolar ishlatiladi. Shuningdek maxsus xom ashyolar: buyoq xushbuy XVD beruvchi, elimlovchi, ko'pik xosil kiluvchi moddalar, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan organik kislotalar xam ishlatiladi. Bundan tashqari parxez va shifobaxsh qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun esa vitaminlar, fermentlar, dengiz karamlari, oqsilga boy ashyolar, gematogen, sorbit, ksilit va boshqa xom ashyolardan keng foydalaniladi.

Qandolat maxsulotlari qo'llaniladigan xom ashyo- ning turiga, ishlab chiqarish texnologiyasi xamda oli- nayotgan maxsulot xossalariga qarab qandli qandolat va unli qandolat maxsulotlariga bo'linadi. Qandli kan- dolat maxsulotlariga meva va rezavor mevali qandolat maxsulotlari, karamellar, konfetlar, iris, draje, Xolva maxsulotlari kiradi. Unli qandolat maxsulotlariga esa pechene, pryaniklar, pirojniylar, tort- lar, kekslar, ruletlar va boshqalar kiradi. Bundan tashqari aloxida guruxga sharq qandolat maxsulotlari kirgiladi.

Meva va rezavor mevali standolat maxsulotlari

Meva-rezavor mevali qandolat maxsulotlari yangi mevalar va ularni qayta ishlash natijasida olinadi- gan maxsulotlardir, ya'ni meva suvlari, sharbatlari, butkalaridan qand, xushbuylantiruvchi va buyok moddalari. organik kislotalar kushib ishlab chiqariladi- gan maxsulotlardir. Bunday maxsulotlarning assorti- menti juda xilma-xildir. Ularga marmelad, pastila, murabbo, povidlo, djem, stukat va jele maxsulotlari kiradi. Qandli qandolat maxsulotlari orasida bu maxsulotlar yuqori biologik qiymatga ega ekanligi bilan ajralib guradi, chunki ularni ishlab chiqarishsta vitamin, mineral moddalar, pektindar, fermentlar- ga boy bo'lgan xom ashyolar ishlatiladi.

Meva-rezavor mevali qandolat maxsulotlarining yuqori energiya berish qobilyati ularning tarkibida Qand moddalarining miqdori juda yuqoriligi bilan tavsiflanadi. 100 g meva-rezavor mevali qandolat maxsulotlarining energiya berish qobilyati 1100—1500kJ ga tengdir.

Marmelad — bu jele (ilvirasimon) konsistenstiya- li, nordon-shirin, ta'mi o'ziga xos xushbuylikka ega bo'lgan maxsulotdir. Marmelad xom ashyosiga va tayyor- lanish usuliga qarab meva-rezavor mevali va jeleli marmeladlarga bo'linadi.

Meva-rezavor marmeladdar uchun asosiy xom ashyo meva-rezavor mevalar butkasi xisoblansa, jele mar- meladlari ishlab chiqarishda esa agar, agaroid ishlatiladi. Agar va agaroid jele marmelad i ga jelesimon konsistenstiya beradi. Pastila marmelad maxsulotlaridan shu bilan farq qiladiki, ularni ishlab chiqarishda meva buhalari, shakar, tuxum otsidi kushib aralashma havo bilan ko'pirtiriladi va ko'pirtirilgan massadan pastila ishlab ch i kar il ad i. Pastilaning ko'piksimon konsis- tenstiyasini saqlab turish uchun ishlatiladigan modda- ning turiga qarab, ular elimli, qaynatma va elimsiz bo'ladi.

Elimli pastila — bu olma bugkasi va boshqa meva- rezavor mevalar butkasiga shakar, patoka, agar modsta- si va tuxum oqsili kushib olinadigan madsulotdir.

Qaynatma pastilaning elimli pastiladan farqi shuki, kaynatma pastila ishlab chiqarishda ko'pirtirilgan butkaga elimli agar eritmasi urniga kaynok marmelad buhasi kushiladi.

Elimsiz pastila yuqori jele berish qobilyatiga ega bo'lgan olma butkasiga shakar va tuxum oqsilini kushib tayyorlanadigan madsulotdir.

Murabbo — bu butun doldagi yoki bo'laklarga bo'lingan dul mevalarni, rezavor mevalarni, ba'zan esa Kovun bo'lakchalarini shakar yoki qand-patoka sharbati- da kaynatib pishirilgan madsulot. Murabbo ishlab chikarish uchun xom ashyo sifatida madaniy va yovvoyi o'simliklarning mevalari, atirgul barglari, yongoqaar va poliz sabzavotlari ishlatiladi. Murabbolar ishlab chikarish uchun yangi dul mevalardan tashqari muzlatilgan va oltingugurt bilan konservalangan mevalar dam ishlatilishi mumkin.

Murabbolarning sifati ko'p dollarda ishlatiladigan mevalarning sifatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababdan murabbo tayyorlashda xom ashyolarning sifatiga katta e'tibor beriladi. Masalan, murabbo tayyorlash uchun ishlatiladigan mevalar uta pishib ketmagan paytda uzilishi, bir xil navli, etdor, ezilmagan, zich, o'ziga xos maza va xushbuylikka ega bo'lishi kerak.

Murabbo tayyorlash asosan kuyidagi uch bosqichda olib boriladi: xom ashyoni tayyorlash, sharbat tayyorlash va pishirish jarayonlari.

Murabbo uchun ishlatiladigan mevalar avvalo sara- lanadi, okar suvda yuviladi, bandlaridan, ba'zan ypyF- lari va danaklaridan dam tozalanadi. So'ngra murabbo pishirishda mevalarning tabiiy rangini saqlab kolish uchun tayyorlangan mevalarda fermentlarning aktivli- gini yukotish uchun issiq par (blansirovka) bilan ishlov beriladi. Murabbolar tayyorlashning ikkinchi bosqichi sharbat tayyorlashdan iboratdir. Sharbat shakarni yoki sha- kar-patokani issiq suvda eritib tayyorlanadi. Patoka murabboda qand qistallarining paydo bo'lishiga yo'l kuymaydi. Ko'pincha 1 kiem xom ashyoga 1,5 qism shakar solinadi. Kananing miqdorini kamaytiriig xisobiga murabbolarning sifatini va biologik qiymatini oshirish mumkin.

Murabbolar tayyorlashning .so'nggi bosqichi tayyorlangan xom ashyoni, ya'ni mevalarni sharbatga solib, vakuum moslamalarda staynatib pishirishdan iboratdir. Ishlatilayotgan xom ashyoning turiga qarab bir marta yoki ko'p marta pishirish usullari qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha hajmi kichik mevalar va rezavor mevalarda n murabbo tayyorlashda bir marta pishirish usuli qo'llaniladi.

Ko'p marta pishirish usulida tayyorlangan xom ashyoga staynost sharbat kuyiladi, so'ng u bir necha dastista davomida lishiriladi, shundan keyin meva bir necha soat mobaynida sharbat ichida ushlab turiladi va pi- shiriladi. Ko'p marta pishirish usuli bilan tayyorlangan murabbolarning sifati bir marta pishirish bilan tayyorlangan murabbolar sifatidan yustori bo'ladi, chunki bu usulda sharbat mevaga bir tekisda, asta-se- kinlik bilan singadi, mevalarning shakli uzgarmay- di va xokazo.

Djem — ezilgan meva va rezavor mevalarni shakar sharbati, jele xosil stiladigan meva suvlari, pektin moddalari kushib pishirishdan paydo bo'ladigan jele- simon konsistenstiyaga ega bo'lgan maxsulotdir. Djem- ning murabbodan farsti shundaki, unda mevalar ezilgan, konsistenstiyasi kuyu q jelesimon xolatda bo'ladi. Djem olish uchun ishlatiladigan mevalar tarkibida pektin moddasi 1% atrofida bo'lib, nordonlik darajasi esa 1% dan kam bulmasligi kerak.

Djem tayyorlashda xam mevalar murabbo tayyorlash- dagidek pishirish uchun tayyorlanadi. Djem bir yo'la pishirilganligi uchun ularda vitaminlar, pektin va boshqa moddalar murabbolarga nisbatan kam roq parchalanadi. Yustori sifatli djem olish uchun vakuum moslamalarda pishirish kerak.

Konfetyur uzining tashqi ko'rinishi, olinishi va sifati bo'yicha djemga yastin turadi. U xam jelesimon konsistenstiyaga ega. Konfetyur ishlab chiqarish uchun olma, olxuri, bexi, uriq shaftoli, olcha, *"kulu]tay, gilos ishlatiladi. Konfetyur tayyorlashda meva butun- lay yoki bo'laklanib shakar sharbatiga gushiriladi, ke- yin esa unga 5—16% miqdorida pektin ekstrakta, limon kislotasi, xushbuylantiruvchi moddalar kushi- ladi. Shundan keyin bu aralashma qisqa muddatda (25 dastika) mevalarning xushbuyligini, ta'mini, rangini, vitamin va pektin moddalarini saqlab stolish uchun vakuum moslamalarda pishiriladi.

Sifatiga qarab konfetyur ekstra va a'lo navlarga bo'linadi. Kuruq moddalar miqdori konfetyurda murabbo va djemlardagidan ko'proq bo'lib, 70—75% ni tashqil etadi.

Povidlo — meva va rezavor mevalar butqasini qand, pektin va kislotalar kushib yoki kushmasdan zich, surka- luvchan, konsistenstiya hosil bulguncha qaynatib pishi- rilgan qandolat maxsulotidir. Povidlo tayyorlashda sun- iy buyoq va aromatik moddalar xamda essenstiyalar ishla- tilishiga yo'l kuyilmaydi. Yuqori sifatli povidollar olish uchun ularni pishirish ishlari maxsus vakuum mos- lamalarida olib borilishi kerak. Povidollar xam murabbo qadoqaashda ishlatiladigan idishlarga joylanadi. Shisha ballonlarga joylangan povidollar sterilizastiya qilinmasdan xam chiqarilishi mumkin.

Iqkatlar deb butun yoki bo'laklarga bo'lingan mevalarni qand-patoka sharbatida pishirilib, keyin esa sharbatdan ajratib, quritilib sirlangan yoki shakar sepilgan qandolat maxsulotlariga aytiladi. Stukatlar danakli, urug'li, stitrus,

yongok mevalari xamda oshko- voq sabzi, lavlagi, kovun va tarvuzlarning puchogi- dan tayyorlanishi mumkin. Stikatlar xam xuddi murab- bolarni pishirgandek pishiriladi. Ularni sirlash uchun qand sharbatining to'yingan eritmasi ishlatiladi. Meva ustida xosil bo'lgan yupka qand pardasi ularga yalti- roqaik beradi va tashqi muxitdan saqlaydi.

Shokolad

Shokolad kakao dukkaklaridan tayyorlangan xom ashyoga shakar, kar xyl xushbuy va lazmatli moddalar kushib yoki kushmasdan ishlab olinadigan maxsulotdir. Shokoladda 31—37 foiz yog, 6—8 foiz oqsil, 47—63 foiz qand, 2—4 foiz kraxmal, 1,0—1,5 foiz mineral moddalar, 0,6 foiz organik kislotalar, 0,4 foiz teobromin va birmuncha Bi, V2, E vitaminlari uchraydi. Shokoladda suv miqdori juda kam (1,0—1,5%) ligi uchun yuqori tuyimli maxsulot xisoblanadi. 100 g shokolaaning energiya berish qobiliyati urtacha 2260—2330 kJni tashqil etadi.

Shokoladlar assortimepti. Qandolat fabrikalarn ishlab chiqarayotgan shokoladlar oldiy va dessert sho- koladlariga bo'linadi. Ularning har biri uz navbatida kushi mcha xom ashyolar kushilgan yoki kushilmaganligiga Qarab turlarga ajratildi.

Oddiy kushimchasiz shokolodlar — to'g'ri burchakli plitka shaklida ishlab chiqarilib, ularga Stirq Do- rojniy, Karpatskiy, Detskiy shokoladdarini kiritish mumkin.

Oddiy kushimchali shokoladlar kushimchasiz shoko- lodlarga nisbatan ko'p miqdorda va xilma-xil assortimentov ishlab chiqariladi. Ularga Slivoviy, Apel- siioviy, Lunniy, Skazki Pushkina (quruq sut kushil- gan), Belosnejka, Alenka (kaymogi olingan QURUQ sut kushilgan), Zolushka (kofe kushilgan), Sedmoe nebo (yongok kUsh,(lgan) kabi shokoladlar kiradi.

Kushimchasiz dessert shokoladlariga Sport, Gvardeyskiy, Prima, Lyuks, Odessa, Serebyanni yarlik va boshqalar kiradi.

Kushimchali desert shokolodlariga esa Ekstra (sut kushilgan), Rot-Front (olxuri qoqi kushilgan), Oso- biy (sut, ozrok tuz kushilgan) va boshqalar kiradi.

Shokolad sifatiga kuyiladigan talablar. Shokoladlar organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha tegishli talablarga javob berishi kerak Sho- kolaaning organoleptik ko'rsatkichlariga shakli, yuza- si, rangi, konsistenstiyasi, ta'mi va xidi kiradi.

Shokoladlarning shakli plitka, baton, medal va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Ularning shakli to'g'ri, sinmagan, shu shokolad turiga moe bo'lishi kerak

Shokoladlarning rangi och jigar rangdan tuq ji- gar ranggacha bo'ladi. Ko'pchilik xollarla dessert shoko- ladlari tuq jigar rangda bo'ladi.

Shokoladlarning konsistenstiyasi 16—18°S da kat- tiq sindirib ko'rilganda tuzilishi hamma joyda bir xil, ezilmay kolgan kushimchalar bulmasligi, ya'ii bir jinsli bo'lishi kerak Shokoladlarni ogiz bushli- gida sinab kurganda shokolad qismlari ogizda sezil- may erib ketishi kerak

Shokoladlarning yuzasi silliq dogeiz, pufakcha- larsiz, kemtik-chukurchalari bulmasligi kerak

Shokoladlarning eng muxim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga namligi, 10% li xlorid kislotasida eri- maydigan kul miqdori, umumiy qand miqdori, shoko- lod massasining maydalanganlik darajasi kabi ko'rsat- kichlar kiradi.

Kushimchasiz shokoladlarda namlik 1,2 foizdan 5 foizgacha miqdorda bo'lishi kerak

Umumiy qand miqdorining massasi kushimchasiz shokoladlarda 63 foizdan, kushimchali shokoladlarda esa 55 foizdan ortik bulmasligi kerak

Shokoladlarning damma turida 10% li xlorid kis- latasida erimaydigan kul moddasining miqdori 0,1 foizdan oshmasligi kerak

Shokoladlarni kadoqaash, joylash va saqlash. Sho- koladlar uralib yoki uralmay badiiy jidatdan beza- tilgan kutilarga joylashtiriladi. Urash uchun ishlatiladigan vositalar shokoladlarni namliqaan, iflos- lanishdan, kuyosh nurlaridan dimoya knlib, ularga yaxshi chiroy beradi.

Donalab sotiladigan plitka shokolad uch kavat knlib (yupka kogozga, zar kogozga, chiroyli bezatilgan eti- ketkaga) uraladi. Uralgan shokolad esa 5 kg dan knlib karton yashiklarga yoki 2,5 kg dan knlib giloflarga taxlanadi.

Shokoladlarni nisbiy namligi 75 foizdan, hapo- rati esa 18°S dan ortik bulmagan kuruq toza, yaxshi shamollatiladigan, • zararkunandalar bilan zararlan- magan omborlarda saqlash tavsiya etiladi.

Shokolad saqlanayotgan xonalarning darorati kes- kin uzgarganda shokolad yuzasida shudring tomchilari naydo bo'lib, shokolad kanani eritadi. Natijada suv bug'lanib, qand qistallari shokolad yuzasida ok dog- larni paydo qiladi. Xuddi shunday mogorga uxshagan dogaar shokolad yuzasida yog'larning erishidan dam dosil bo'lishi mumkin.

Bunday nuksonlarga ega bo'lgan shoko- ladlar sotishga chiqarmasligi kerak

Shokoladlarni saqlash muddati ularning turiga, uralgan va uralmaganligiga qarab 2 oydan to 6 oygacha qilib belgilangan.

' Kakao talstoni

Kakao talkoni ezilgan kakao dukkagidan knsman moyini olgandan keyin kolgan kunjarani maydalash natijasida olingan madsulotdir. U kakao ichimligi tayyorlash va qandolat madsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Kakao talkoni ishlab chiqarish uchun kakao dukkagi gozalanadi, saralanadi, kovuriladi va maydalanadi.

Maydalangan kakaodan presslash yordamida kakao moyi ajratiladi. Olingan kakao moyi shokolad ishlab chi- Karish uchun ishlatiladi. Moy olgandan keyin qalغان kunjara esa sovutiladi, maydalanadi va mayda qilib tuyiladi. So'ngra esa elaklarda elanib, vanilin va xushbuylantiruvchi moddalar kush il ad i.

Kakao talkoniniig sifatiga talablar. Kakao talko- nining sifatini aniqashda ularning rangiga, may- dalanganlik darajasiga, ta'mi va xidiga e'tibor be- riladi. Kakao talkonining rangi och jigar rangdan tuk-jigar rangtacha bo'ladi. Tal kon kancha mayda, bir jinsli bo'lsa uning sifati shuncha yuqori xisoblanadi. Kakao talkonini barmoqaar orasiga olib ezilgan- da mayin, zarralar sezilmaydigan bo'lishi kerak Kakao talkonini 38 nomerli ipak elaklarda elaganda elaqaa kolgan kukunlar 1,5 foizdan ortik bulmasligi kerak Kakao talkoni mazali, mazasi o'ziga xos, biroz taxir va xushbuy bo'lishi kerak Kushimchalar kushib tayyorlangan kakao talkonida esa kushimchalar ta'mi va .hidi sezilib turishi kerak

Kakao talkoni gigroskop i k mahsulot xisoblanadi. Yangi ishlab chiqaridgan kakao talkonida namlik 6 foizdan oshmasligi kerak Vakt utishi bilan kakao talkonining namligi ortib boradi. Kadoqaangan kakao talkonini bir oy saqlaganda uning namligi 7,5 foizdan ortik bulmasligi kerak Kakao talkoni uchun yana bir asosiy ko'rsatkich yog miqdori xisoblanadi. Kakao talkonida yog miqdori kunjaraning yoklilik darajasiga boyutik bo'ladi. Umuman, kakao talkonining yogli- lik darajasi 18 va 14 foizdan kam bulmasligi kerak Kul moddasi n ing miqdori xam asosiy ko'rsatkichlar- dan biri xisoblanadi. Karbonat tuzlari bilan ishlan- gan kakao kukunida kul miqdori 6 foizdan ortik bulmasligi kerak Mogor xidi, kulansa, nordon, yog ta'mi va boshqa begona xid va ta'mlarga, shuningdek xira kul rangiga ega bo'lgan kakao talkoni sotishga ruxsat etilmaydi.

Kakao-talkonini kadoqaash, joylash va saklash. Kakao talkoni tunuka bankalarga, ichiga pergament, ria- rafinlangan kogoz yoki shafof plyonkadan patron so- lingan kutichalarga, pachkalarga 50] dan 250g gacha qilib kadoqaanadi. So'ngra kadoqaangan kakao talkoni faner, taxta yoki karton yashiklarga joylanadi. Idish toza, QURUQ va xidsiz bo'lishi lozim.

Kakao talkoni temperaturasi 18° dan, xavoning nis- biy namligi 75 foizdan oshmaydigan omborxonalarda saqlanishi lozim. Tunuka bankalarga kadoqaangan kakao talkonining kafolatlangan saqlash muddati 12 oy, polimer materiallardan tayyorlangan kutilarga va pachkalarga kadoqaanganda 6 oy, kofo3 paketlarga kadok- langanda esa 3 oy qilib belgilangan.

Karamel maxsulotlari

Karamel qandolat maxsulotlarining eng ko'p tarkalغان turlaridan biri xisoblanadi. Karamellar deb karamel massasidan olinadigan qandolat maxsulotla- riga aytiladi. Karamellar turiga qarab ular butunlay karamel massasidan va karamel massasi xamda karamel nachinkasidan tashqil topgan bo'lishi mumkin.

Karamel asosan karamel massasidan olinadi. Yangi tayyorlangan karamel massasi qandolat maxsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan boshqa massalardan shu bilan farq qiladiki, ularda qistallangan qand amorf (shishasimon) xolati ga utadi. Amorf jismlar- da ularning suyuq xolatdan kattik xolatga utishi katta temperatura oraliBida boradi. Masalan 110°S dan baland xaroratda karamel massasi suyuq xolatda bo'lsa, uy xaroratida esa kattik xolatda bo'ladi. Karamel massasi tayyorlash uchun asosiy xom ashyo shakar va patoka xisoblanadi. Ko'pchilik xollarda 100 Kiem shakarga 50 kiem patoka olinadi. Patoka asosan qistallanishiga yo'l kuymaydigan vosita xisoblanadi. Patokasiz amorf xolidagi karamel massasini olib bulmaydi. Karamel massasining xususiyatlariga patoka miqdori katta ta'sir ko'rsatadi. Karamel massasida patoka miqdori kam bo'lsa, maxsulot qistallashib Koladi, ko'p bo'lganda esa massaning gigroskopiklik xususiyati oshib, karamel ochik xavoda erib ketadigan bo'lib koladi. Bunday qamellarni esa uzoq saqlab bulmaydi.

Karamel 'massasini olish uchun avvalo shakar suvda eritilib sharbat tayyorlanadi. Karamel sharbati tarkibida quruq moddaning miqdori 85% ga yaqin bo'ladi. So'ngra sharbat maxsus vakuum jixozlarda quruq moddaning miqdori 96—97% ga etguncha kaynatiladi. Patoka shakar sharbatiga kaynatish jarayonining oxiri- da kushilishi maqsadga muvofiqair. Agar patoka shar- batga kuyo'tirish jarayonining boshlanishida kushil- sa, patoka ta'sirida saxaroza iniversiyaga uchrab ke- rapidan ortikcha miqdorda invert qandi hosnl bo'ladi va bu esa sharbat rangini storaytirib, karamed massa- si sifatini pasaytirishga odib keladi.

Suk>k karamel massasi vakuum jidozlardan chika- rilgandan keyin 85—90°S gacha sovutilvdi. Kerak bo'lgan dollarda buyoq moddalari, kislota va essenstiyalar Qshiladi.

Karamel massasi 100°S dan yuqori daroratda yopish- kok tinik suyuqaik dolatida, 80—85°S da esa plastik holatda, bundan past daroratda esa katgi st holatda bo'ladi. Shu sababli karamellarga shakl berishda karamel massasining temperaturasi 80—85°S atrofida bo'ladi.

Karamellar assortiment va ularning tavsifi. Karamel assortimenta xilma-xildir. Karamellar assortimenta karamel massasiga xilma-xil xushbuyliq ta'm beruvchi moddalar kushish, tayyor karamellarning yuza- sini xilma-xil usullar bilan ishlov berish asosida ko'paytarish mumkin.

Restepturasi va tayyorlash usuliga qarab karamellar obaki (nachinkasiz), nachinkali, yumshok va vitamin- lashtirilgan karamelga bo'linadi.

Kogozlarga uralgan va uralmaganligiga qarab karamellar uralgan va uralmagan karamellarga bo'linadi.

Karamellar tashqi yuzasini ishlov berishiga qarab yaltaratilgan karamel (yuzasi yog-mum statlami bilan konlanadi), yuzasidan issiq guyingan qand siropi bilan ishlov berilgan (drajelangan), sirlangan karamel (yuzasi shokolad massasi bilan koplangan), yuza- siga kakao galkoi, qand talkoni senilgan sepma karamellarga bo'linadi.

Karamel massasiga ishlov berish usuliga qarab chhib ishlangan va chuzib ishlanmagan karamel massa- laridan tayyorlangan karamellarga bo'linadi,

Nachinkasiz karamel. Bu karamellar faqat karamel massasidan tayyorlanadi. Ularning tarkibida qand mod- dasining miqdori 96% ni tashqil etadi. Bu turdagi karamellarga xilma-xil shakldagi mayda va uralmagan karamellar, ya'nn monpanselar kiradi.

Kogozga uralgan nachinkasiz karamel ishlov beri- lishiga, rangiga, xushbuyligiga qarab «Barbaris», «Dyushes», «Teatralnaya», «Vzletnaya», «Myatnaya», «Zolotistaya» turlariga bo'linadi.

Turli hayvonlar, kushlar, baliqlar yoki buyumlar shaklidagi karamellar ham nachinkasiz karamellarning maxsus gurlarini tashqil etadi.

Nachinkali karamel. Nachinkali karamellar karamel massasidan va massa ichida joylashgan karamel nachin- kasidan tashqil topgan bo'ladi. Nachinkali karamellar juda xilma-xildir. Bunday karamellar kogo zga uralgan va kogozga uralmagan xolda savdoga chiqariladi.

Mevali va rezavor-mevali nachinkali karamel. Bu- larga olma, noq kora smorodina, uriq apelsin, viktoriya, meva- rezavor meva buketi, olxuri, punshevaya va boshqa karamellar kiradi. Bu turdagi karamellar qaysi meva nomi bilan atalsa, shu nomdagi meva- rezavor mevaning rangi, hidi va mazasini beradi.

Asal nachinkali karamel. Bo'larga Pchelka, Zolotoy uley, Medovaya podushechka kabi karamellar kiradi. Bu karamellar xidi va ta'mi bo'yicha boshqa karamellar- dan farq qilib, yakkol asal xidi va ta'mini beradi.

Lnkerln nachinkali karamel. Bu turdagi karamel- larga Likernaya, Zubrovka, Arktika, Aromatnaya, Vish- neviy liker, Apelsinli liker kabi karamellar kiradi.

Sutli nachinkali karamel. Bu turdagi karamellarga Xokkey, Molochnaya, Kashtan, Kaymoqai kulupnay, Kofeynaya, Populyarnaya kabi karamellar kiradi. Bu turdagi karamellarda sut va sut maxsulotlarining xidi va ta'mi sezilib turadi.

Pomada nachinkali karamel. Bu turdagi karamellarga Pomaanaya, Bom-bom, Mechta, Zolotoy petushok Limonnaya, Apelsinovaya kabi karamellar kiradi. Pomada nachinkasi saxarozaning mayda qistallaridan tashqil topgan nafis massa bo'lib, ogizda tezda erib ke- tadi.

Marstipan nachinkali karamel. Bu nachinkali karamellarga Utro, Fantaziya, Marstipan, Orexovaya, Fistashkovaya, Qasniy sport karamellari kiradi. Marstipan nachinkasi kovurilmagan yongok magizlarini shakar upasi va yog'lar bilan korishtirib, ezish natija- sida olinadi. Bu nachinka yumshok moysimon konsis- tenstiyasiga Sga bo'lib, yongok ta'mi yakkol sezilib turadi.

Yongok nachinkali karamel. Bu nachinkali karamellarga Baykal, Rachki, Kashtan kabi karamellar kiradi. Ehfoq nachinkasi kovurilgan yongok va kunjut urusha- rini shakar upasi bilan korishtirib, ezish natija- sida olinadi. Bu nachinka yumshoq moysimon konsis- tenstiyaga ega bo'lib, kovurilgan yongokning ta'mi sezilib turadi.

Shokoladln-yongomi nachinkali karamel. Bu nachin- kali karamellarga Bon-Bon, Sibir, Duboq Shokolaanaya, Burevestnik kabi karamellari kiradi. Bu nachinka yongoq kakao dukkagi va 10% kakao moyini shakar upasi bilan maydalab, ezish natijasida olinadi. Bu nachinkali karamellar yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo'ladi.

Ko'pirgirib pishntnlgan nachinkali karamel. Bu nachinkali karamellarga Qasniy maq Lakomka, Ulib- ka, Yantar kabi karamellarni kiritish mumkin. Bu nachinka yaxshi kaynatilgan shakar-shinni sharbatini tuxum osti yoki kulik dosil qiladigan boshqa moddalar bilan kushib, ko'pirtirib pishitihstan oldin meva butkasiga sut, spirtli xushbuy essenstiyalar kushiladi.

Karamellar sifatiga galablar. Karamellarning sifati organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida aniqaanadi. Sifati bo'yicha karamellar tegi shli standartlar talabiga javob berishi kerak

Karamellarning organoleptik ko'rsatkichlarini aniqaashda ularning tashqi ko'rinishiga, shakli, rangi, yuzasining holati, ta'mi va didi, nachinkasining konsistenstiyasiga e'tibor beriladi.

Karamellarning yuzasi KURUQ kulga yopishmaydi- gan, yoriklarsiz, choklar ajralmagan, nachinkasi okib chikmagan bo'lishi kerak Uralgan karamellarni etiketka kogozidan archiganda oson archilishi, karamel esa kogozga yopishib kolmagan bo'lishi kerak Karamellarning yuzasiga senilgan shakar, qand talkoni, kakao galkoni. maydalangan yongok uvokchalarn bir tekisda taksimlangan bo'lishi kerak Agar karamel- ning yuzasi shokolad bilan sirlangan bo'lsa, bu

karamellarning yuzasi yaltiroq dogsiz va boshqa ara- lashmalardan toza bo'lishi kerak Yuzasiga boshqa narsalar senilgan karamellar bir-biriga yopishgan bo'lsa-da, ular sal ta'sir etilsa oson ajralib ke- tadigan bo'lishi kerak Karamellarning shakli to'g'ri, buzilmagan bo'lishi va shu karamel turi ga moe bo'lishi kerak Karamellarning shakli ko'p dollarda kesuvchi va karamelga raem soluvchi mashinalarga bog'liq bo'ladi. Mashinalar yaxshi ishlamasa karamellarning dam shakli kingir-kiyshik bo'lib kolishi mumkin. Karamellarning shakli karamel massasining shakl berilayotgandagi daroratiga dam birmuncha bog'liq bo'ladi. Agar shakl berilayotganda karamel massasining darorati 80°S dan ortik bo'lsa ka- ramelning shakli uzgaradi va bir-biriga yopishib koladi gai karamel hosil bo'ladi. Aksincha, 60°S dan past xaroratda kam shakl berilayotganda karamel massasi yorilib, nachinkasi okib ketadi.

Karamellarning rangi bir xil, toza, dogsiz bo'lishi kerak Karamellarning ta'mi va xidi o'ziga xos, begona ta'm va xidlarsiz, yokimli bo'lishi kerak Na- chinkaning ta'mi va xidi xam karamellar turiga moe bo'lishi shart. Mevali nachinkali karamellarda uta kay- natilgan, ya'ni kuygan qand ta'm va xid bulmasligi lozim. Tarkibida yosh ko'p bo'lgan yongokli, shokoladli, sutli nachinkalarda esa yog modstasining oksiddanishi bilan bog'liq kulansa va achchik ta'm bulmasligi kerak

Karamellarning konsistenstiyasi amorf, shishasi- mon, ogiz bushligada eriydigan bo'lishi kerak Nachin- kalarning konsistenstiyasi xam bir xil, yongokli, mar- stipanli nachinkalarda yaxshi ezilmagan xom ashyo qism- lari bulmasligi zarur. Meva-rezavor mevali, asalli, sutli nachinkalarda esa qand qistallashmagan yoki okib ketmaydigan xolatda bo'lishi kerak Karamel ichidagi nachinka bir tekis taksimlangan bo'lishi zarur. Standart talabi bo'yicha uralgan karamelda nachinka kamida 33 foiz, uralmagan karamellarda esa kamida 23 foiz bo'lishi talab etil ad i.

Karamellarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlaridan standart bo'yicha karamel massaning namligi, qayta- ruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand miqdori, nor- donligi chegaralanadi.

Karamel massaning namligi 3 foizdan ortik bulmasligi kerak Karamel nachinkasining namligi esa nachinkaning turiga qarab xar xil bo'ladi. Masalan, mevali nachinkada 19,5% dan, pomadali, marstipanli nachinkalarda 14% dan, yongoqai nachinkada esa namlik 4% dan ortik bulmasligi kerak

Karamel tashqi muxitdan o'ziga namlikni tortib olish kobilyyatiga egadir. Buning asosiy sababi karamel massasida qaytaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan (glyukoza, fruktoza, maltoza) qand moddalari mav- juddigidir. Shu sababli karamellarda standart talabi bo'yicha qaytaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand moddasi miqdori 23 foizdan oshmasligi kerak

Karamellarning nordonligi ularning turiga va kushilgan limon kislotasi miqdoriga qarab 2° dan 26° gacha bo'ladi.

Karamellarda nachinka miqdori xam ularning asosiy ko'rsatkichlaridan biri xisoblanadi. Nachinka miqdori karamellarning kagta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Katta karamellarda nachinka miqdori 33 foizdan, kichik karamellarda esa 14 foizdan kam bulmasligi kerak

Kogozga uralmagan, yuzasiga biron narsa sepilgan karamellarda uvalangan shakar va boshqa kushimchalar ko'pi bilan 2 foizdan oshmasligi kerak

Shuningdek karamellarda 10% li NSE eritmasi- da erimaydigan kul moddasining miqdori kam standart talabi bo'yicha chegaralanadi va 0,2 foizdan ko'p bulmasligi kerak Dengiz karami kushilgan karamellarda esa yod moddasining miqdori asosiy ko'rsat- kichlardan biri xisoblanib, 1 kg maxsulotda 20 mgdan kam bulmasligi talab kilinadi.

Karamellarda ogir metallar tuzlarining bo'lishiga yo'l kuiilmaydi. Karamellarda ishlab chiqarish tex- nologiyasining buzilishi va saqlash bilan bog'liq nuksonlar uchrashi mumkin. Masalan, meva-rezavor mevali, sugli nachinkalar tayyorlashda ularni keragi- dan ortiqaa darajada kaynatish, kuyo'ltirish kiD beruvchi moddalarning uchib ketishiga, nachinkaning korayishiga, karamellizastiyaga uchragan qand ta'mi- ning paydo bo'lishiga va massasining yopishkok bo'lib kolishiga sabab bo'ladi. Aksincha, nachinkada namlikni n g kun bo'lishi esa kara mel ni saqlaganda karamel massasi nachinkada erib ketishiga sabab bo'ladi. Xuddi shuningdek karamellarga shakl berishda tegishli Xaroratga rioya kilmaslik karamel yuzasida yorikcha- lar paydo bo'lishiga va karamel shaklining buzshsh- shiga olib keladi. Karamellarni saqlash jarayonida ro'y beradigan asosiy nuksonlardan biri karamel yuzasining nam tor- tishi va karamelning erib kolishi xisoblanadi. Bu nukson, yuqorida aytilgandeq karamel massasidagi qaytaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand moddasining miqdoriga va karamelning qanday nisbiy nam- liqaa saqlanishiga bog'liq bo'ladi. Karamellarda qaytaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand moddasining staidartdagi miqdoridan ko'p bo'lishi karamelning nam tortish qobilyatini kuchaytiradi. Ikkinchidan, karamellar xavoning nisbiy namligi yuqori bo'lgan sharoitda saqlansa xam tezda nam tortib, eruvchan bo'lib koladi.

Karamellarni saqlash jarayonida bo'ladigan nukson- lardan biri karamel massasining qotib, qistalla- shib kolishi xisoblanadi. Bu nukson karamel massasi- da qaytaruvchan qand moddasining juda kam bo'lishi- dan va karamellarni juda kuruq xonalarda uzoq saq- lash jarayonida paydo bo'ladi. Ba'zan nachinkasi tarkibida yog bor karamellar uzoq saqlansa, yogning oksid- lanishi natijasida karamellarda achchiq ta'm xam paydo bo'lishi mumkin.

Karamellarni urash, joylash va saqlash koidalari. Karamellar kogozga uralgan va uralmagan xollarda chiqariladi. Etiketka qogoziga uralgan karamellar saqlash uchun qulay, gigiena talablariga javob beradi va chiroyli ko'rinadi. Karamellar ko'pchilik xollarda ikki qaglam kogozga uraladi. Ikkinchi qatlami parafin surkalgan kogoz, stellofan, pergamentlardan iborat bo'ladi. Ular namlikni va yokni utkazmayligan xususiyatlarga ega bo'ladi. Etiketka kogozi esa yirtilmaydigan, elastik karamelin yaxshi saqlaydigan, gul bosilgan bo'lishi kerak. Uralgan va uralmagan karamellar 100 g dan 1000 g gacha qilib kadoqaanadi. Bunday karamellar massasi 5 kg dan 22 kg gacha bo'lgan taxta, faner yashiklarga yoki bulmasa karton yashiklarga joylanadi. Uralmagan, ya'ni yuzasiga shakar va boshqa narsalar sepilmagan karamellarning uzoqroq saqlanishini ta'minlash uchun ular kalaylangan tunuka bankalarga yoki tashqarisi sirlangan bankalarga joylanadi. Bunday, nisbatan germetik sharoitda karamel yaltiroqasini uzoq vaqt saqlaydi va nam tortmasdan yaxshi saqlanadi. Karamellar KURUQ toza, yaxshi shamollaydigan xonalarda 18°C dan yuqori bulmagan xaroratda saqlanishi zarur. Karamel saqlanadigan xonalarda xavoning nisbiy namligi 75% dan ortik bulmasligi kerak. Karamellarning kafolatlangan saqlash muddati ularning turiga, uralgan va uralmaganligi, qanday idishga joylanganligiga qarab xar xil bo'ladi. Eng ko'p saqlanadigan karamellar meva-rezavor, asalli, pomadali nachinkali uralgan karamellar xisoblanadi. Bu karamellar uchun saqlash muddati 6 oy qilib, yontoqai nachinkali karamellarning saqlash muddati esa 2 oy qilib belgilangan.

Konfet maxsulotlari

Konfet madsulotlariga konfetlar, iris va drajelar (yumaloq konfetlar) kiradi. Konfetlar konfet masallihdan tayyorlanadi. Ular karamellardan konsistensiyasining yumshoqasiga, chiroyli bezatilganligi, yuqori ozuqaviy «iyomatga egaligi bilan ajralib turadi va ko'pincha mayda qistall tuzilishda bo'ladi.

Konfetlar qanday masalliqaan (konfet massasi) tayyorlanishiga, konfet korpusiga ishlov berilishiga qarab guruhlanadi. Masalliqning turiga qarab konfetlar pomadali, mevali, sutli, likerli, yongoqai, marnipanli, qemli, kuvlangan bo'lishi mumkin. Korpusiga ishlov berilishiga qarab konfetlar sirlangan va sirlanmagan konfetlarga bo'linadi. Konfet massasiga shakl berilishiga qarab esa konfetlar koliplariga kuyish, surkash, presslash yo'llari bilan ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin. Tashqi bezagi bo'yicha konfetlar etiketka kogozlariga uralgan, uralmagan (ochik), bezak berilgan karobkalarga joylangan dolda ishlab chiqariladi.

Draje — kichik ulchamli, yumaloq shaklli, korpus ustida bo'lama kobigi bor konfet madsuloti hisoblanadi. Drajelar ikki qismdan — korpusdan va bo'lama kobiqaan iborat. Draje kornusi turli konfet va karamel masalliqaaridan tayyorlanadi. Ba'zan draje korpusi sifatida yongok magizi, quruq mevalar, rezavorlar va dokazolar ishlatilishi mumkin.

Tashqi bo'lama katlamining tarkibiga qarab drajelar shakarli, shokolalli bo'ladi. Drajelarni tayyorlash quyidagi jarayonlarni uz ichiga oladi: korpusni tayyorlash, bo'lama bilan koplash, yaltiratish, qadoklash va joylash.

Drajelarni yaltiratish uchun mum, parafin, o'simlik yogadan tashqil topgan aralashma ishlatiladi. Bu jarayon dam maxsus barabanlarda yoki gorizontall joylashtirilgan kozonlarda olib boriladi. Yaltiroqai beruvchi bu katlam drajelarni namliqaan saqlab, ularning bir-biri bilan yopishib qalmasligini ta'minlaydi.

Draje korpusining qanday masalliqaan tayyorlanganligiga qarab ular qandli, pomadali, likerli, yongoqai, marnipanli, rezavor mevali bo'ladi.

Irislar amorf yoki mayda qistall i iris massa-sidan tayyorlangan sutli konfetlarning bir turi xisoblanadi. Iris masalliqaaari shakar-patoka sharbatiga sut, yog'lar, ta'm va xushbuylantiruvchi modstalar kushib qaynatib kuyotirib olinadi. Sut urniga ba'zan oqsilga boy yongoq magzi, kunjut, soya, eryongoqaar Xam kushilishi mumkin.

Iris tarkibi, tuzilishi va iris masalligini qaynatish tartibiga qarab karamelsimon (qattiq), yarim qattiq va yumshoq irislariga bo'linadi.

Xolva

Xolva qat-qat tolasimon strukturaga ega bo'lgan, yuqori koloriyali qandolat maxsulota xisoblanadi. Xolva tarkibida 45% gacha qand, 30% gacha yog, 12% gacha oqsil, 1,8—2,9% mineral modstalar va Bi, Vg, RR vitaminlari bo'ladi. Xolva arabcha so'z bo'lib «shirinlik» degan ma'noni anglatadi.

Xolva olish uchun asosiy xom ashyo sifatida qand, patoka, yongoq magzi, kunjut, kungaboqar urug'i, kakao talqoni, xushbuylantiruvchi moddalar ishlatiladi. Kulik xosil qalish uchun esa etmak eritmasi ishlatiladi.

Sharq shirinliklari

Sharq shirinliklari qandolat maxsulotlarining katta guruxi xisoblanib, ularning assortimenta 180 dan ortiq nomni tashqil etadi. Bu qandolat maxsulotlarini ishlab chiqarishda shakar, patoka, yog, asal kraxmal va xar xil ziravorlar ishlatiladi.

Ishdatiladigan xom ashyoning turiga, ishlab chiqarish usuli va ta'm xususiyatlariga qarab sharq qandolatlari 3 guruxga bo'linadi: karamelga uxshash, konfetlarga uxshash va unli sharq qandolatlari.

Karamelga uxshash sharq shirinliklari qattiq konsistensiyaga ega bo'lib, ular bnr-biridan shakli, ulchamlari, tarkiyi va karamel massasiga qanday bezak berilishiga qarab farq qaladi. Ko'pchilik xollarda bu qandolat maxsulotlari shakar, patoka va shakar-asal sharbatini qaynatib kuyo'ltirib, issiq karamel massasiga yongoq, kunjut va boshqa magizlarni kushib, Xosil bo'lgan massaga ma'lum bir shakl berilib, sovuq tiladi va joylanadi.

Bu guruxga bodom, yongoq, erylangoq, kunjut urug'i, o'rik danagidan tayyorlangan grilyajlar kiradi.

Chuziluvchan karamel massasidan esa parvarda, shakar-pandir va feshmak kabi shirinliklar tayyorlanadi. Xuddi shuningdek bu guruxga novvot, kosxolva, tuzlanib kovurilgan pista, bodom, erylangoq, o'rik magizlari kabi shirinliklarni ham kiritish mumkin.

Konfeglarga Uxshash sharq shirinliklari asosan sutli yoki kaymoqai pomadalarga maydalangan yongok magizlari, stukatlar, quritilgan mevalar kushib ishlangan maxsulotlardir. Bu guruhga kaymoq palen, limon, mandarin, kunjut, yongoqaardan tayyorlangan Nuga, yontoqai, sutli sherbetlarni, Roxat-lukum va boshqa sharq shirinliklarini kiritish mumkin.

Undan kilingan sharq shirinliklari ko'p miqdorda yog, qand, yongok asal, dorivorlar (kalampirmunchoq dolchin, za'faron) kushib achitilgan xamirdan pishiriladi. Bu guruxga, Shakar-chureq Shakar-iuri, Shakar-lukum, Boku qarabesi, Qaglama paxlava, Egli paxlava, Suxumi paxlavasi kabi sharq shirinliklarini kiritish mumkin.

Sharq shirinliklarinipg sifatiga kuyiladigan talablar xam boshqa qandolat maxsulotlarining sifatiga kuyiladigan talablarga moe keladi.

4.6. Unli qandolat maxsulotlari

Unli qandolat maxsulotlari qandolat maxsulotlarining katta guruxini tashqil etib, ular uglevod, yog, oqsillarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bu maxsulotlar yuqori energiya manbai xisoblanib, juda mazali va tuyimlidir.

Unli qandolat maxsulotlarini tayyorlash uchun xom ashyo sifatida bug'doy uni, qand, cf, tuxum, sut, tuz, xamirni ko'pirtiruvchi kimyoviy moddalar, ta'm beruvchi va boshqa kushimcha maxsulotlar ishlatiladi.

Xom ashyoning turiga va tayyorlash jarayonlari texnologiyasiga qarab unli qandolat maxsulotlari pechenelar, qeker (quruq pechenelar), galetlar, pryaniklar, vafli, pirojniylar, tortlar, kekslar, ruletlar va boshqa turlarga bo'linadi.

Pechenelar

Pechenelar unli qandolat maxsulotlarining eng ko'p tarkalgan turlaridan biridir. Pechenelar tayyorlash uchun a'lo, 1, 2 navli bug'doy unlari ishlatiladi.

Shuningdek undan xamir tayyorlashda qand, yog, sut maxsulotlari va kimyoviy ko'pchituvchi modda — karbonat kislotasining natriyli tuzi (Na_2CO_3) ku shil ad i.

Pechenelar restepurasiga va tayyorlash usuliga qarab qandli, chuziluvchan xamirdan tayyorlangan va ko'p miqdorda yog, tuxum, sut kushib tayyorlangan (shirmoy) pechenelarga bo'linadi.

Peche tayyorlash. Pechenelarni tayyorlash kuyidagi texnologik jarayonlarni uz ichiga oladi: asosiy va kushimcha xom ashyolarni aralashtirish uchun tayyorlash, xamir korish, yoyish va xamirni etiltirish, shakl berish, pishirish, sovitish va tayyor maxsulotni kadoklash va joylashtirish.

Xamirni korish maxsus mashinalar yordamida bajarilsa, dastlab shakar, suv, yog, sut va boshqa kushimcha xom ashyolardan emulsiya tayyorlanib, so'ngra un kushib xamir tayyorlanadi. Qand va yog'larning miqdori, xamir korish sharoitlari qandli va chuziluvchan pechenelar xamiri xossalari xar xil bo'lishini ta'minlaydi.

Qandli pechenelar uchun xamir tayyorlashda xamirga ko'p miqdorda shakar va yog kushilib, xamirning namligi ko'p bo'ladi xamda xamir korish nisbatan pastrok xaroratda, uzoq bulmagan muddatda olib boriladi. Bu esa un oqsili kleykovinasining kamrok bo'lishini, xamirning murtligini ta'minlab, berilgan shakllarning yaxshi saqlanishiga olib keladi. Chuziluvchan pechenelar uchun xamir korilganda esa xamir elastik xossalarga ega bo'lishi uchun un oqsili kleykovinasining tuda bukishi uchun sharoit yaratish zarur. Buning uchun esa shakar va yog kamrok solinib, xamirning namligi baland bo'lishi, yuqori xaroratda, uzoq muddatda xamir korilishi ta'minlanadi. Masalan, qandli pechenelar uchun xamir korish 19—25°C da 10—15 minut davomida olib borilsa, chuziluvchan pechenelar uchun esa 27—30°C da 30—60 minut davomida olib boriladi.

So'ngra qilgan xamir juvalar orasidan utkaziladi. Chuziluvchan pechenelar tayyorlashda xamir katkat, chuziluvchan xususiyatga ega bo'lishi uchun bir necha bor juvalanadi.

Xamir juvalangandan keyin maxsus mashinalarda donalarga bo'linib, ularga shakl beriladi va raem solinadi.

Chuziluvchan xamirdan peche tayyorlashda pechenening yuzasi ko'pchib ketmasligi uchun namparlanadi.

Pechenelar uzluksiz ishlaydigan gaz pechkalarida 240—270°C da 4—6 minut davomida pishiriladi. Pechenelar pishirilishi jarayonida xamirda xilma-xil uzgarishlar ro'y beradi. Kraxmalning kleysterizastilaniishi, oqsillarning denaturastilalanishi, kananing Qisman parchalanishi, kraxmalning dekstringa aylanishi, melanoidlarning hosil

bo'lishi, xushbuy hid va ta'mning, och-kungir rangning hosil bo'lishi bunga misol bo'la oladi. Yuqori temperaturada NaHCO_3 ning parchalanishi natijasida SO_2 va NH_3 singari gazsi- mon maxsulotlar ajralib chikali. Bu esa xamirning ko'pchishi va pechenelar ichida govakliklarning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Pishirilgan pechenelar sovitiladi, keyin sifati tekshirilib, kogozlarga uraladi va joylanadi.

Pechenelar assortimenta. Pechenelarning assortimenti ularning restepturasi, ishlatilayotgan unning turi, naviga qarab va xamir tayyorlash usuliga qarab xilma-xildir.

Qanddi pechenelar eng ko'p assortimentda ishlab chiqariladi. A'lo navli bug'doy undan tayyorlanadigan Apelsinovie, Otrano, Molochnoe, Dieticheskoe, Limonnoe, 1-navli undan tayyorlanadigan Sadko, Chaynoe, Shaxmatnoe, Stelinnoe, Drujba, Leto, Solnechnoe, 2-navli undan tayyorlanadigan Novost, Kombayner, Severnoe pechenelari shular jumlasidandir.

Chuziluvchan xamirdan tayyorlanadigan pechenelarda Qand va yog miqdori qandli pechenelarga nisbatan kamrok bo'lib, ular zichrok strukturaga ega bo'lib, kamrok bukadi va uvalanmaydi. Bu pechenelarning yuzasi sil-liq oddiy nakshli, och sarik rangda bo'ladi. A'lo sortli bug'doy unidan tayyorlanadigan Avrora, Moskva. Mariya, Shkolnoe, Novoe, Tomatnoe, 1-navli bug'doy unidan tayyorlanadigan Smes № 1, Uqainskoe pechenelari kabilar chuziluvchan xamirdan tayyorlangan pechenelarga kiradi.

Shirmoy pechenelar qandli va chuziluvchan pechenelardan tarkibida qand, yog, tuxum va sut maxsulotlari miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu pechenelar ishlab chiqarish uchun asosan a'lo navli bug'doy uni ishlatiladi. Shirmoy pechenelarning ulchamlari kichkina, xima-xil shaklda bo'lib, yuzasi magiz, yongoq shokolad, mayiz va boshqa mahsulotlar bilan bezatilib ishlab chiqariladi.

Qeker (sturust pechene)

Qeker tashqi ko'rinishi kat-kat strukturasi bo'yicha chuziluvchan xamirdan tayyorlangan pechenelarga juda uxshash bo'lsa-da, ular tarkibida qand bulmasligi va xamir tayyorlashda xamirturush ishlatilishi bilan ajralib turadi.

Qekerlarni ovqatlanishda non urnida ishlatish xam mumkin.

Tayyorlash usuliga va tarkibiga qarab qekerlar xamirturush solingan yoki xamirturush xamda kimyo-viy ko'pchituvchi modda kushilgan (Zdorove, Molodost, Moskovskiy, Stolovoe), ziravorlar kushilgan (pishloq, anis, tuz va boshqalar) guruxlariga bo'linadi.

Galetlar

Galetlar tarkibida namlik juda kam bo'lgan, uzoq saqlanadigan, ekspedistiyaga chikuvchilar va sayyoxlarga muljallangan quritilgan unli qandolat maxsuloti xisoblanadi. Tarkibiga qarab galetlar oddiy, boyitilgan, parxezbop turlariga bo'linadi. Oddiy galetlar Qand va yog kushmasdan burdoy unining 1- va 2- navlaridan tayyorlanadi.

Boyitilgan galetlar burdoy unining a'lo navidan yog kushib ishlab chiqariladi. Parxezbop galetlar tarkibida shakar va yog ko'p bo'lgan turlariga bo'linadi.

Pechene, qeker va galetlar sifatiga talablar. Bu maxsulotlar sifati xam boshqa qandolat maxsulotlari sifati kabi organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida aniqaanadi. Pechenelarning organoleptik ko'rsatkichlariga shakli, yuzasi, rangi, ta'mi va xidi, sindirib ko'rilganda kesimining xolati kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Pechenelarning shakli kvadrat, to'g'ri turtburchaq aylana, xalkasimon, xar xil shakllarda bo'lishi mumkin. Xamma filarda xam shakli to'g'ri, pechenelar sinmagan, butun, shu maxsulotga xos bo'lishi kerak

Pechenelarning yuzasi xar xil pechenelarda bir xil emas. Shakarli pechenelarning yuz tomoni sil-liq ko'pchigan, uvoqaari yopishgan joyi, chukurchalari bulmasligi kerak Pechene yuzasidagi bezaklari anik ko'rinish turishi talab etiladi. Galet va qekerlar yuzasida mayda yorilmagan pufakchalari, teshikchalari bulishiga yo'l kuyiladi.

Pechenelarning rangi xamma joyida bir xil, och-sariq rangdan tilla ranggacha bo'lishi kerak

Pechenelar sindirilib ko'rilganda yaxshi pishgan bo'lishi, govakchalari bir xil, bushliqaar, yaxshi aralashmagan xamir qismlari bulmasligi kerak Galet va qekerlar sindirib ko'rilganda kat-kat bo'lishi, govaklari bir tekis bulmasligiga ruxsat etiladi.

Pechenelarning ta'mi va kidi yokimli, yakkol sezilib turishi, shu mahsulot guriga moe bo'lishi, begona ta'm va kidlar bulmasligi kerak

Pechene, galet, qekerlarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlaridan qand, yog, suv miqdori, ishkorligi, bukish darajasi va 10% li xlorid kislotasida erimayligan kul moddasi miqdori kabilar aniqaanadi. Masalan, qandli pechenelarda namlik 3—10 foizni, chuziluvchan xamirdan tayyorlangan pechenelarda esa 5—9,5 foizni tashish etishi kerak Pechenelarda qand va yog moddasining umumiy miqdori esa ularning turiga va restepturasiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Pechene va qekerlarning ishkorligi 2° dan, galetlarniki esa 1,5° dan ortik bulmasligi kerak Xamma qandolat maxsulotlarida 10% li xlorid kislotasida erimaydigan kul mi kyuri 0,1 % dan ortik bulmasligi kerak

Yaxshi pishmagan, kuygan, shakli buzilgan, mofop bosgan, begona xid va ta'm ga ega bo'lib kolgan, xasho-ratlar bilan zararlangan pechene, galet va qekerlar sotishga ruxsat etilmasligi kerak

Pryaniklar

Pryaniklar shirin, ziravor ta'mga ega bo'lib bug'doy yoki bug'doy-javdar unidan qand, kimyoviy ko'pchituvchi moddalar va XDR xil ziravorlar kushib tayyorlanadigan qandolat maxsuloti xisoblanadi. Ular ieche- nelardan tarkibida ko'p miqdorda qand (45 foizgacha), suv (12—14 foiz) va xar xil ziravorlar borligi bilan farq qiladi. Ba'zi bir pryaniklarga qanddan tashqari asal, kraxmal shinnisi (patoka), yog, tuxum, magiz kabi kushimcha xom ashyolarni xam ishlatish mumkin. Pryaniklarga maxsus xid va ta'm berish uchun xa- mirga ziravorlar — muskat yongogi, kardomon, arpa- bodiyoi, zira, zanjabil, kashnich, vanilin va boshqalar kushiladi.

Pryaniklar tayyorlash. Pryaniklar xamir tayyorlash usullariga qarab odstiy va kaynatilgan pryaniklarga bo'linadi.

Oddiy pryaniklar tayyorlashda xamir bir yo'la qri- ladi. Bu usulda ziravorli sharbatga un va kimyoviy ko'pchituvchi moddalar kushib qrilib xamir tayyorlanadi. Xamirning namligi 23,5—25,5% ni tashqil etadi.

Kaynatilgan pryaniklar uchun xamir tayyorlash uch bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda 85—95°S Karoratta ega bo'lgan shakar-kraxmal shinnisi yoki sha- kar-asal sharbatiga un aralashtirib koriladi. So'ngra maxsulotning yaxshi va o'ziga xos ta'mga ega bo'lishini ta'minlash uchun bir necha kun 10—15°S karoratga ega bo'lgan xonalarda saqlanadi. Keyin esa xamirga kimyoviy, ko'pchituvchi, ziravorlar va boshqa xom ashyolar kushib, yaxshilab koriladi. Bu erda tayyor xamir 20— 22% namlikka ega bo'lishi kerak

Tayyor xamir yupka qilib yoyiladi, so'ngra kulda yoki maxsus mashinalarda ularga shakl beriladi. Pryaniklar maxsus gaz pechkalarida 200—240°S da 6—12 minut davomida pishiriladi. Pishirilgan pryaniklar shakar sharbat yordamida sirlanadi, ba'zi xdgitada esa shakar, yongoq magzi sepiladi. Bunday ishlov berish pryaniklarning mazasini oshirib, ularga yaxshi chiroy beradi va kurib kolishdan saqlaydi. So'ngra pryaniklar sovutilib, joylanadi.

Pryaniklarning assortimenti. Oddiy va kaynatil- gan pryaniklarning assortimentini ularni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan unlarning navlari va pryaniklarning tarkibi xarakterlaydi.

Oddiy pryaniklar bug'doy unining a'lo, 1- va 2- navlaridan tayyorlanadi. A'lo navli undan tayyorlanadigan pryaniklarga Myatnie, Limonnie, Vanilnie, Tulske, 1-navli undan ishlab chiqariladigan pryaniklarga Moskovskie, Sportivnie, Banan, Osennie kabi pryaniklar kiradi.

Kaynatilgan xamirdan tayyorlanadigan pryaniklar tuqoq jigar rangli, ularda o'ziga xos yokimli hid yaqaol sezilib turadi, oddiy pryaniklarga nisbatan sekinrok kurish va kogish xususiyatiga egadir. Kaynatilgan pryaniklar asosan 1- navli undan, ba'zan esa a'lo va 2-navli unlardan kam ishlab chiqarili- shi mumkin. A'lo navli undan ishlab chiqariladigan Lyubitelskie, Nevskie, 1-navdan ishlab chiqarila- digan Zagorskie, Saxarine, Medovie, Fruktovie, Russkie, 2-navdan ishlab chiqarilaligan Karelskie, Rumyaniy, Linda pryaniklari shular jumlasidandir.

Kaynatilgan xamirdan pryanikka nisbatan nami ko'proq va shakari kamroq bo'lgan kovrijka deb ataluv- chi unli qandolat maxsuloti kam ishlab chiqariladi.

Pryaniklarning sifatiga talablar. Pryaniklarning organoleptik ko'rsatkichlariga shakli, yuzasining xolati, rangi, sindirilgan joyining ko'rinishi, ta'mi va xidi kabi ko'rsatkichlari kiradi.

